

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“Baholash ishi va investitsiyalar” kafedrası

M.RAIMJANOVA

**“QIMMATLI QOG'OZLAR QIYMATINI
BAHOLASH ” FANIDAN**

AMALIY MASHG'ULOT UCHUN

USLUBIY QO'LLANMA

**Oliy ta'limning 5A231501 –Baholash ishi va rieltorlik magistratura
mutaxassisligi magistrantlari uchun**

TOSHKENT - 2017

“Qimmatli qog’ozlar qiymatini baholash” fanidan amaliy mashg’ulot uchun uslubiy qo’llanma. Raimjanova M. - T.: Toshkent moliya instituti, 2017 yil. 64 bet.

Ushbu uslubiy qo’llanma magistraturaning 5A231501 – “Baholash ishi va rieltorlik” mutaxassisligi magistrantlari uchun mo’ljallangan bo’lib, unda “Qimmatli qog’ozlar qiymatini baholash” fanidan amaliy mashg’ulot uchun tayyorlanish va bajarish tartibi belgilab berilgan.

Taqrizchilar:

K.A.Nazirov – “Red billboard media” MCHJ moliya masalalari
bo’yicha direktor

K.Xomitov – TMI, “Baholash ishi va investitsiyalar” kafedrası dotsenti,
i.f.d.

Uslubiy qo’llanma Toshkent moliya instituti “Baholash ishi va investitsiyalar” kafedrası (2017 yil 5 maydagi 33-sonli) majlisida muhokama qilingan va tasdiqlash uchun institut o’quv-uslubiy Kengashiga tavsiya etilgan.

Kafedrası mudiri L.Zoyirov

Uslubiy qo’llanma institute o’quv-uslubiy Kengashining 2017 yil
_____dagi _____-sonli yig’ilishida ko’rib chiqilgan va
tasdiqlangan.

Kengash raisi I.Qo’ziyev

KIRISH

Mustaqillik yillari davomida mamlakatimizda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy hayotda tub o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ayniqsa, zamon talabiga mos malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha ta'lim sohasida "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida magistratura faoliyatini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda "Magistratura to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi Qarorlarining qabul qilinishi muhim o'rin tutadi.

Mazkur hujjatlarda uzluksiz ta'lim tizimining uzviyligini takomillashtirish, yuqori malakali, yuksak kasbiy, ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi zamonaviy kadrlar tayyorlash tizimini yaratish ko'zda tutilgan.

Mutaxassis kadrlar tayyorlashda ta'lim jarayonini tashkil qilish muhim o'rin tutadi. Ta'lim dasturini o'zgarishi jarayonida fanlarning bir qator masalalari va muammolarini amaliy ko'nikmalarni shakllantirish orqali o'rganilishi lozim. Amaliy mashg'ulotalabalar tomonidan u yoki bu fan bo'yicha dastur materiallaridan bir qismini mustaqil o'zlashtirilishidir.

Kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilishda magistratura talabalarning amaliy mashg'ulot topshiriqlarini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibini belgilash o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Magistratura talabasining amaliy mashg'ulot ishi o'quv rejasida muayyan fanni o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv ishlarining ajralmas qismi bo'lib, u uslubiy va axborot resurslari jihatdan ta'minlanadi hamda bajarilishi reyting tizimi talablari asosida nazorat qilinadi.

Amaliy mashg'ulotning asosiy maqsadi o'qituvchining rahbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir.

Amaliy mashg'ulotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- kerakli ma'lumotlarni izlab topish, qulay usullari va vositalarini aniqlash;
- axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;

- an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlash;
- elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlash;
- internet tarmog'idan maqsadli foydalanish, berilgan topshiriqning ratsional echimini belgilash;
- ma'lumotlar bazasini tahlil etish;
- ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlash, topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondoshish.

TALABALARNI AMALIY MASHG'ULOTDA ISHLASHGA QIZIQTIRISH OMILLARI

Talabalar tomonidan faol amaliy mashg'ulot topshiriqlarini bajarilishi faqat jiddiy va barqaror qiziqishlar mavjud bo'lgandagina amalga oshishi mumkin. Bunday eng jiddiy omil - kelgusi samarali kasbiy faoliyatga tayyorgarlikdir. Amaliy mashg'ulot topshiriqlarini bajarishda talabalarni faollashtirishga imkon beruvchi ichki omillar sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

1. Qilinayotgan ishning foydaliligi. Agar talaba o'z ish natijalarining ma'ruza jarayonida yoki amaliy mashg'ulotlarda, maqolalar tayyorlashda foydalanilishi mumkinligini bilsa, uning bajarayotgan ishiga bo'lgan munosabati keskin tarzda yaxshi tomonga o'zgaradi, hamda ish sifati ham ortadi. Shunga ko'ra, talabani ruhan shu ishga tayyorlash, bajariladigan ishning zarurati ko'rsatib berilishi kerak.

2. Talabaning ijodiy faoliyatdagi ishtiroki. Bu nihoyatda xilma-xil ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Xususan, kafedralar tomonidan olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishlari, uslubiy ishlar va hokazolar.

3. Fan olimpiadalarida, ilmiy-tadqiqot ishlarida, amaliy ishlar tanlovlarida ishtirok etish.

4. Bilimlarni nazorat qilishda qiziqtiruvchi omillardan foydalanish (reyting, testlar, noan'anaviy imtihon shakllari). Bu omillar tegishli holatlarda musobaqa ruhini vujudga keltiradi. Mana shu holatning o'zi talabada o'z ustida ishlashni, o'zini rivojlantirishga ichki ehtiyojini shakllantiradi va rivojlantiradi.

Bunda hal qiluvchi rolni o'qituvchi ado etadi. U umuman talaba bilan emas, balki muayyan shaxs bilan ishlayotganini har doim diqqat markazida bo'lishi lozim. U o'z talabasining kuchli va ojiz tomonlarini yaxshi bilishi, individual qobiliyati va qiziqishlarini nazarda tutishi

maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchining vazifasi talabaning – bo'lajak yuqori malakali mutaxassisning yaxshi tomonlarini ko'rish va ko'paytirishdan iborat.

Amaliy mashg'ulotga ijobiy munosabatni shakllantirish va rivojlantirish uchun har bir bosqichda ishning aniq maqsadi va qo'yilgan vazifalari tushuntirilishi, talabalar tomonidan ana shu maqsad va vazifalarning anglanganligi nazorat qilinishi kerak. Bu ishlar keyinchalik talaba tomonidan vazifalarni mustaqil tarzda bajarish hamda maqsadlarni tanlash ko'nikma va malakalarining shakllanishiga asos bo'ladi.

Amaliy mashg'ulotlarning teng yarmi, ya'ni bir juftlikning 50 %i masala va mashqlarni mustaqil bajarishga sarflanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Uni quyidagicha tashkillashtirish mumkin:

1. O'qituvchining kirish so'zi. (mashg'ulot maqsadi, asosiy masalalar)
2. Tezkor so'rov.
3. 1-2 masala yoki mashqni doska yonida bajarish.
4. Masala va topshiriqlarni mustaqil bajarish.
5. Topshiriqlarni bajarishdagi xato va kamchiliklar ustida ishlash. (joriy mashg'ulot oxirida yoki keyingi dars boshlanishida). Mashg'ulotlarni o'tkazishda mustaqil ishlar va topshiriqlarini katta banki bo'lishi maqsadga muvofiq. Ular murakkablik darajasiga ko'ra ajratilsa yanada yaxshi bo'ladi.

Mashg'ulotlarni o'tkazishda fanning xususiyatidan kelib chiqib quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

1. Qiyinlik darajasiga ko'ra bir xil bo'lgan bir qator topshiriqlarni berish. Bunda muayyan vaqt oralig'ida eng ko'p mashq bajargan talaba yuqori baho oladi.
2. Qiyinlik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar beriladi. Bunda baho topshiriq turiga qarab belgilanadi.

Amaliy mashg'ulotni tashkil etishning shakl va usullari nihoyatda ko'p. Bulardan qaysi birini tanlash va foydalanish muayyan fanga, o'qituvchining maqsad va vazifalariga, qolaversa uning tajriba va mahoratiga bog'liqdir.

“QIMMATLI QOG'OZLAR QIYMATINI BAHOLASH” FANNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash bo'yicha nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malaka shakllantirish.

Fanning vazifasi – uni o'rganuvchilarga:

- Qimmatli qog'ozlar baholash ob'ekti sifatida;
- Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholashning turlari va regulativ asoslari;
- Qimmatli qog'ozlarning qiymati va narxi;
- Qimmatli qog'ozlar qiymatini belgilovchi omillar;
- Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholashning metodologik asoslari
- Qarz munosabatlarini mujassamlashtiruvchi qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash;
- Ulush munosabatlarini mujassamlashtiruvchi qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash;
- Hosilaviy va boshqa turdagi qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash;
- Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash to'g'risidagi xulosa (hisobot);
- Qimmatli qog'ozlar qiymatini uning narxi bilan bog'liqlikda baholash kontseptsiyasi bo'yicha nazariy-amaliy bilimlarni uzviylik va uzluksizlikda o'rgatishdan iborat.

AMALIY MASHG'ULOTNI O'TISHDA QO'LLANILADIGAN YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING MAZMUN-MOHIYATI

“Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash” fandan amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish jarayonida kafedrada mavjud bo'lgan video filmlardan, slayd va boshqa o'quv materiallaridan foydalaniladi.

- oldindan olingan ma'lumotni yangisi bilan o'zaro bog'lash qobiliyatini shakllantirishga imkon beradi.

Klaster (Klaster - tutam, bog'lash): ma'lumot xaritasini tuzish va vositasi-barcha fikr konstitutsiyasini fokuslash va aniqlash uchun asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish.

Toifali jadval: toifa - mavjud holat va munosabatlarni aks ettiradigan belgi (umumiy).

- ajratilgan belgilarga ko'ra olingan ma'lumotlarni birlashtirishni ta'minlaydi;

- tizimli mushohada qilish, ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Kontseptual jadval: o'rganilayotgan xodisa tushuncha, qarash, mavzu va shu kabilarni ikki va undan ortiq jihat bo'yicha taqqoslash imkonini beradi. Tizimli mushohada qilish, ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko'nikmasini rivojlantiradi.

BBB jadvali: Bilaman, Bilishni xoxlayman, Bildim

- matn (mavzu, bo'lim) bo'yicha tadqiqot ishlari olib borish imkonini beradi;

- tizimli mulohaza qilish, tarkibga ajratish ko'nikmalarini beradi.

T –jadval: bita kontseptsiya (ma'lumot)ning jihati o'zaro solishtirish (ha/yuk, ha/qarshi). Tanqidiy mushohada rivojlantiradi.

BLOT-tahlil jadvali: tashkilot resurslari holatini tahlil qilish va baholash vositasi. Bu kabi tahlilni tashkilot bo'yicha umumiy tarzda yoki alohida muammo yoki loyixa bo'yicha ham amalga oshirish mumkin. Tizimli mushohada qilish, taqqoslash, solishtirish, taxlil va sintezni amalga oshirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Loyihalash metodi: kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish bo'lib, loyiha, ma'lum bir hisob-kitob, chizma va boshqalarga asoslangan holda tavsiflash, bayon qilish shaklida mujassamlashgan g'oya, fikr.

«Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash» fanining amaliyot mashg'ulotlarida muammoni jamoali tarzda xal etishning usullari va vositalari:

Aqliy hujum: bu uslubda qo'yilgan savol, muammo, masalani butun guruh bilan birgalikda muhokama kilinadi. U talabalarni o'quv jarayonida mashg'ulotlar faol qatnashishlarini topish va bayon qilish chog'ida boshqalarni ham fikrini jalb qilish, o'z fikrlarini aytishga yo'naltiruvchi metoddir.

Bahs: o'z fikrini ifoda etishni xoxlovchilar orasida biron bir munozarali masalani muhokama qilish, xaqiqatni aniqlash va to'g'ri qarorni qabul qilish.

Muzokaralar: eshitish aniq tashkil etilgan ikki tomon fikrlari almashinuvi.

Pinbord texnikasi: muammoni xal etish buyicha g'oyalarni tizimlashtirish va guruhlashtirish va yagona nuqtai nazarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Delfi texnikasi: muammoni xal etishning jamoali baholash va tanlash imkonini beradi.

6-6 *texnikasi*:qo'yilgan muammoni xal etish buyicha jamoa tomonidan ifodalangan variantlardan eng yaxshisi baholanadi va tanlanadi, keyin quyidagi xarakterlar algoritmgga muvofiq ma'lum belgilar bo'yicha guruhlanadi.

Keys stadi.:talabalarni qaror qabul qilishga o'rgatishda muammoli vaziyat hosil kilib, uni echishni o'rganish metodi.

Shuningdek «Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash» fanining amaliyot mashg'ulotlarida kompyuter dasturlaridan slaydlardan, multimediate'lim vositalaridan, INTERNET sahifalari va tizimlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Talabalarga ushbu fanni o'zlashtirishda mavjud o'quv adabiyotlaridan, elektron darslik, teslar majmuasi va boshqa manbalardan foydalanish tavsiya etiladi.

“QIMMATLI QOG'OZLAR QIYMATINI BAHOLASH” FANINING HAR BIR MAVZUSI BO'YICHA AMALIY MASHG'ULOT TOPSHIRIQLARI

1-mavzu. Qimmatli qog'ozlar baholash ob'ekti sifatida Topshiriqlar

1. Berilgan sxemani fanning strukturasi va boshqa fanlar bilan aloqasini ko'rsatib, to'ldiring.

<i>Fanning maqsadi:</i>	<i>Fanning vazifalari:</i>	<i>Fanning predmeti:</i>
<i>Fanning strukturasi</i>		
<i>Fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi:</i>		

2. «Aqliy hujum» metodining asosiy qoidalari bilan tanishgan holda, ish o'yinini tashkil qiling.

«Aqliy hujum» metodining asosiy qoidalari:

- Olg'a surilgan fikr va g'oyalar tanqid ostiga olinmaydi va baholanmaydi;
- Taklif qilinayotgan fikr va g'oyalar qanchalik fantastik va antiqa bo'lsa ham, uni baholashdan o'zingizni tiying!
- Tanqid qilmang – hamma bildirilgan fikrlar bir xilda bebahodir.
- Fikr bildirilayotganda bo'lma!
- Maqsad – fikr va g'oyalar sonini ko'paytirish.
- Qanchalik ko'p fikr va g'oyalar bildirilsa shunchalik yaxshi. Yangi va bebahodir fikr va g'oyaning paydo bo'lish ehtimoli paydo bo'ladi.
- Agar fikrlar qaytarilsa asabiylashmang va hayron bo'lmang.
- Xayollar «tuzg'ishiga» ijozat bering.
- Bu muammo faqatgina ma'lum usullar yordamidagina hal bo'lishi mumkin, deb o'ylamang.
- Fikrlar «hujumi»ni o'tkazish vaqti aniqlanadi va unga qat'iyan rioya qilinishi shart.

3. Quyidagi ekspert varaqlaridan foydalangan holda, undagi savollarga javob toping.

Ekspert varag'i №1

“Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash” fanining mohiyati va predmeti

1. Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash tushunchasi.
2. “Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash” fanining predmeti.
3. “Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash” fanining maqsadi va vazifalari

Ekspert varag'i №2

“Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash” fanining tarkibiy tuzilishi

1. Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholashni tashkil etishning nazariy asoslari
2. Qimmatli qog'ozlarning xususiyatlari
3. Aktsiya tushunchasi va uning turlari.

Ekspert varag'i №3

“Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash” fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi

1. Fanning boshqa fanlar bilan aloqasi.
2. “Baholash ishi”, “Moliya bozori” fanlari bilan aloqasi.
3. “Korporativ moliya”, “Baholash ishi va rieltorlik”, “Qimmatli qog'ozlar bozori”, “Baholash faoliyatini tartiblashtirish”, “Mulk, qiymat va naxning asosari” fanlari bilan aloqasi.

4. Quyidagi berilgan tushunchalarning izohini keltiring

<i>Tushunchalar</i>	<i>Izoh</i>
Qimmatli qog'oz	
Baholash	
Baholash faoliyati	
Nou-xau	
Biznes	
Qimmatli qog'oz xususiyatlari	
Aktsiya	
Obligatsiya	
Veksel	
Hosilaviy qimmatli qog'oz	
Fyuchers	
Option	
Varrant	

2-mavzu. Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholashning turlari va regulativ asoslari

Topshiriqlar

1. Quyidagi nazorat savollariga javob toping.

2. Qimmatli qog'ozlarni baholashda qanday qiymat turlaridan foydalaniladi?
3. Qimmatli qog'ozlar qiymati turlari tasnifini sanab bering?
4. Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholashning asosiy maqsadlari nimalar hisoblanadi?
5. Qimmatli qog'ozlarning bozor qiymatini baholashning xususiyatlari nimalardan iborat?
6. Qimmatli qog'ozlarning nominal qiymatini baholashning xususiyatlari nimalardan iborat?
7. Qimmatli qog'ozlarning emissiya qiymatini baholashning xususiyatlari nimalardan iborat?
8. Qimmatli qog'ozlarning balans qiymatini baholashning xususiyatlari nimalardan iborat?
9. Qimmatli qog'ozlarning tugatish qiymatini baholashning xususiyatlari nimalardan iborat?
10. Qimmatli qog'ozlarning investitsiya qiymatini baholashning

xususiyatlari nimalardan iborat?

11. Qimmatli qog'ozlarning hisob-kitob qiymatini baholashning xususiyatlari nimalardan iborat?

2. Test savollariga javob bering

1. "Baholash" fe'li nimani anglatadi?

- a. qiymatni aniqlash san'ati
- b. qiymat to'g'risidagi huloa
- c. nimaningdir qiymati to'g'risidagi tasavvurga ega bo'dish
- d. ob'yektning qiymatini aniqlash

2. Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholashning asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

- a. Barcha javob to'g'ri
- b. ularning oldi-sotdisi bo'yicha bitimlar tuzish, meros qoldirish va in'om etish tartibotini amalga oshirish
- c. aksionerlik jamiyatiga investitsiyalar jalb qilish
- d. kreditlashda garov qiymatini aniqlash uchun qimmatli qog'ozlar bahosini aniqlash

3. Quyidagilarning qaysi biri qimmatli qog'ozlar qiymatiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar sifatida qayd qilinadi

- a. Barcha javob to'g'ri
- b. savdo maydonlarida o'xshash qimmatli qog'ozlarga talab va taklif nisbati
- c. o'xshash qimmatli qog'ozlar kotirovkasi
- d. qimmatli qog'ozlar likvidligi

4. Aktsiyalarning baholash qiymatiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar

- a. Talab va taklif nisbati, aksiyalar likvidligi
- b. Aktsiyalar qiymati, aktsiyaning ishonchliligi
- c. Aktsiya paketining yakuniy qiymati
- d. Aktsiyadorlarning daromadi

5. ...ning maqsadi - baholovchi tashkilotlarning ichki qoidalarini ishlab chiqishga nisbatan yondashuv va tamoyillarini, shuningdek mazkur qoidalarini qo'llashda ichki nazoratni tashkil qilish va tartibga solish talablarini birhillashtirishdir.

- a. Milliy standartning
- b. Davlat standartining
- c. Baholash standartining
- d. Monitoringning

6. Aktsiyalar paketini baholashning daromad yondashuvida qanday usullar qo'llaniladi?

- a. Foydani kapitallashtirish usuli, pul oqimlarini diskontlash usuli
- b. Kapital bozor usuli, bitimlar usuli, tarmoqlar koefftsienti usuli
- c. Sof aktivlar usuli, tugatish qiymati usuli
- d. Tarmoqlar koefftsienti usuli, pul oqimlarini diskontlash usuli

7. Aktsiyalar paketini baholashning xarajatli yondashuvida qanday usullar qo'llaniladi?

- a. Sof aktivlar usuli, tugatish qiymati usuli
- b. Foydani kapitallashtirish usuli, pul oqimlarini diskontlash usuli
- c. Foydani kapitallashtirish usuli, tugatish qiymati usuli
- d. Kapital bozor usuli, bitimlar usuli, pul oqimlarini diskontlash usuli

8. Aktsept

- a. vekselning oldi tomoniga to'lovchining majburiy imzosi bilan «to'layman» so'zlari bilan ifodalanishi
- b. vekselning orqasida uning egasi o'zgarganligi to'g'risidagi yozuvlar sig'may qolganda yozuvlar davom ettiriladigan qo'shimcha qog'oz
- c. vekselga bo'lgan egalik qilish huquqini boshqa shaxsga o'tishini tasdiqlovchi qo'shimcha yozuv
- d. vekselning amal qilish muddati cho'zilganligini bildiradi

9. Aktsiyadorlik jamiyati dividendi (aktsiya egalariga) qaysi ko'rinishda to'lay olishga haqli?

- a. o'zining aktsiyasi yoki naqt davlat moliyaviy resurslari muomalasi pul bilan, mahsulot bilan
- b. mahsulot bilan
- c. aktsiyaner hisob schyotiga pul o'tkazish bilan
- d. boshqa aktsiyaner jamiyati aktsiyasi bilan

10. Allonj – bu:


- a. vekselning orqasida uning egasi o'zgarganligi to'g'risidagi yozuvlar sig'may qolganda yozuvlar davom ettiriladigan qo'shimcha qog'oz
- b. vekselning o'ng betiga yoki unga ilova qilingan varaqda imzo shaklida ifodalangan bank kafilligi
- c. vekselni amal qilish muddatini cho'zilganligi bildiradi
- d. vekselga bo'lgan egalik qilish huquqini boshqa kishiga o'tganligini tasdiqlovchi xujjat

3. Quyidagi “Qimmatli qog'ozlar qiymatini Baholashga doir meyoriy-huquqiy hujjatlar” jadvalni to'ldiring

Qimmatli qog'ozlar qiymatini Baholashga doir meyoriy-huquqiy hujjatlar		
1	2	3
Qonun	Prezident Farmon, Qarorlari	Vazirlar Maxkamasi Qarorlari

4. "T – sxema" texnikasini o'rgangan holda, Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash tushunchasi doirasida qo'llang.

"T – sxema" texnikasi



Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash tushunchasi

To'g'risi	Noto'g'risi
1.	1.
2.	2.
3.	3.

5. Quyidagi berilgan tusunchalarni, ularning izohini keltiring

Tusunchalar	Izoh
	Qimatbaho qog'ozlarning balans (yoki buxgalter) qiymati (V) o'zida investor-tashkilotning buxgalter balansi ma'lumotlari bo'yicha aktivning qiymatini ifodalaydi.
likvidatsion (yo'q qilish, qutilish) qiymati	
	Bu shunday moliyaviy mablag'larki, hatto korxona tugatilgan taqdirda ham ular albatta qimmatli qog'ozlar egalariga qaytariladi
Baholash faoliyati	
Baholovchi	
	eng ehtimol tutilgan narxi tushunilib, unga ko'ra mazkur baholash ob'ektining ochiq bozorda raqobat sharoitida, bitimning taraflari barcha zarur axborotga ega bo'lgan holda o'z manfaatlarini yo'lida oqilona va ixtiyoriy ravishda harakat qiladi, bitim narxining baland-pastligida esa biron-bir favqulodda holatlar, shu jumladan taraflardan birining ushbu bitimga qo'shilish majburiyati aks etmaydi

3-mavzu. Qimmatli qog'ozlarning qiymati va narxi Topshiriqlar

1. Muhokama uchun savollar

1. Qimmatli qog'ozlar qiymati tushunchasi
2. Qimmatli qog'ozlar qiymatining turlari.
3. Qimmatli qog'ozlar narxi tushunchasi
4. Qimmatli qog'ozlar narxining turlari.
5. Qimmatli qog'ozlar qiymati va narxining o'zaro bog'liqligi.
6. Narx va qiymat qanday funktsiyalarni bajaradi

2. Quyida keltirilgan ma'lumotlarni o'rganing va fikringizni bildiring, o'z xulosangizni shakllantiring.

Qimmatli qog'ozlar qiymati tushunchasi ularning yuridik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari va iqtisodiy mohiyati bilan chambarchas bog'langan. Qimmatli qog'ozlar qiymati, odatda, ularning narxidan farqlanadi, chunki qiymat professional baholovchi, xaridor, sotuvchi, potentsial investor, vositachi yoki emitentning muayyan fikrini ifodalaydi, narx esa tuzilgan bitim shartlarini o'zida aks ettiradi. Qimmatli qog'ozlar qiymati hisoblanadi, narxi esa to'lanadi.

Hozirda qiymat va narxning mazmunini ochib beruvchi quyidagi nazariy yondashuvlar mavjud:

- * mumtoz (klassik) yondashuvga (A.Smit, D.Rikardo) asosan qiymat va narx - tovar (mulk)ning pulda ifodalangan baxosi;

- * neoklassik yondashuvga asosan qiymat va narx - tovarning foydaliligini baxolovchi vosita;

- * zamonaviy neoklassik yondashuvga asosan (A.Marshapl) narx - ishlab chikarish xarajatlarining pulda ifodalangan chegaraviy foydaliligi xamda talab va taklif nisbati;

- * qiymatni baxolash nazariyasiga kura, qiymat narx emas, baxo esa ular tugrisidagi sifatiy va mikdoriy xulosa. Chunki qiymat ekspertlar baxosi, narx bozor kon'yunkturasi natijasi. Zero qiymat va narx uzaro transformatsiyalanish xususiyatiga ega bulib, ular ideal xolda teng bulishi mumkin. Odatda bu xol kamdan-kam uchraydi, uchrasa xam, ular muvozanati omillarning uzgaruvchan ta'sirida tezda buziladi.

3. Qimmatli qog'ozlar qiymati va narxining o'ziga xos xususiyatlari Quyidagi chizmani to'ldiring.

Qimmatli qog'ozlar qiymati va narxining o'ziga xos xususiyatlari	
Qiymat	Narx

4. “Stol atrofida” muloqat-mashg’uloti o’tish qoidasi bilan tanishish va savollarga javob bering.

Stol atrofida” muloqat-mashg’uloti o’tish qoidasi

Fikrlarni bildiruvchi talabalarni diqqat bilan bo’lmasdan eshitish.

Ma’qullanmagan fikrlarga, ruxsat so’rab fikr bildirish.

Ma’qul kelgan fikrlarga, qo’shimcha fikrlarga to’ldirishlar kiritish.

“Stol atrofida” muloqat mashg’uloti uchun savollar

- 1.Qimmatli qog’ozlar qiymati turlari tasnifini sanab bering?
- 2.Qimmatli qog’ozlar qiymatini baholashning asosiy maqsadlari nimalar hisoblanadi?
- 3.Qimmatli qog’ozlar qiymatiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar sifatida nimalarni qayd qila olasiz?
- 4.Qimmatli qog’ozlarning bozor qiymatini baholashning xususiyatlari nimalardan iborat?
- 5.Qanday huquqiy-me’yoriy hujjatlar baholash faoliyatini tartiblashtiradi?
- 6.Baholovchi tashkilot tashkiliy-huquqiy shaklini tashkil etganda qanday majburiy shartlarga rioya etilishi lozim?
- 7.Baholash ob’ektlari tarkibiga nimalar kiradi?
- 8.Baholovchi tashkilot baholash xizmatidan tashqari yana qanday qo’shimcha professional xizmatlarni ko’rsatishi mumkin?

5. Quyidagi berilgan tusunchalarni, ularning izohini keltiring

Tushuncha	Izoh
	mulk (tovar) nafililigining pulda yoki nisbiy birlikda ifodalangan ekspert baxosi bulib, uning miqdori tovar qiymatini yoki narxini mezonlar yordamida baxolash asosida aniqlanadi.
Baxolash	
	kasbiy malaka va vakolatga ega bulgan ekspertning xolisona baxolash ishi. Bunda mulk qiymati va narxining ekspert baxosi, jumladan ularning omillari ta’siri, uzgarish tendentsiyalari va boglikdigi, oldindan tanlab olinadigan tegishli mezon (kriteriy)lar yordamida sifatiy va miqdoriy baxolanishi mumkin.

Narx	
	ma'lum maqsadlarda sarflanishi muljallangan resurslar mikdorining pul birligidagi ifodasi
Sarfqiymat (sarqiymat)	
	raqobatli bozorning konkret sharoitlarida (uning balanslashgan kon'yunkturasini xisobga olgan xolda) baxolash ob'ektini adolat, xalollik va axborot shaffofligi asosida yangi mulkdorga berilishi uchun tulanishi extimol darajasi eng yuqori bulgan pul summasi
Mulkning real qiymati	
Qiymat	

6. Quyidagi test savollariga javob toping

- 1.,,, - tuzilgan bitim shartlarini o'zida aks ettiradi va u to'lanadi
 - a. narx
 - b. baxo
 - c. qiymat
 - d. to'g'ri javob yo'q
2. nazariy yondashuvlarning qaysi birida qiymat va narx- tovar (mulk)ning pulda ifodalangan baxosi deb aytilgan
 - a. neoklassik yondashuv
 - b. mumtoz (klassik) yondashuv
 - c. zamonaviy neoklassik yondashuv
 - d. qiymatni baxolash yondashuvi
3. Qimmatli qog'ozlarning hayot siklining 4 bosqichi qanday nomlanadi
 - a. bozor muomalasi
 - b. emmisiya risolasini davlat ro'yhatidan o'tkazib chiqarish va joylashtirish (emmisiya)
 - c. muomaladan chiqarish (so'ndirish)
 - d. emmisiyaga tayyorgarlik (emmisiyaoldi)
4. Varrant – bu:
 - a. omborlarning tovarlarni saqlash uchun qabul qilinganligini tasdiqlovsi xujjat

- b. egasiga muayyan vaqt uchun yoki muddatsiz shart bilan shartnomada ko'rsatilgan narxda qimmatli qog'ozni sotib olish huquqini beruvchi guvohnoma
 - c. muayyan tovarni sotishga yoki kafilikka olinganligini tadiqlovchi xujjat
 - d. shartsiz qimmatli qog'ozlarni sotib olish huquqini beruvchi xujjat
5. Qimmatli qog'ozlarning hayot siklining 1bosqichi qanday nomlanadi
- a. bozor muomalasi
 - b. emmisiya risolasini davlat ro'yhatidan o'tkazib chiqarish va joylashtirish (emmisiya)
 - c. emmisiyaga tayyorgarlik (emmisiyaoldi)
 - d. muomaladan chiqarish (so'ndirish)
6. Ulush munosabatini bildiruvchi qimmatli qog'ozlar
- a. obligatsiya, hosilaviy qimmatli qog'ozlar
 - b. obligatsiya, xazina majburiyatlari
 - c. aktsiya, veksel
 - d. aktsiya
7. Aktseptlangan veksel – bu
- a. indossant vekselni utkazish chog'ida indossamentda «menga qaytarilmasin» degan ibora kiritilgan vekseldir
 - b. trassantga yoki trassatga uchinchi shaxs, odatda bank tomonidan beriladigan veksel kafolatidir
 - c. vekselga bo'lgan egalik qilish huquqini boshqa shaxsga o'tishini tasdiqlovchi xujjatdir
 - d. trassatning to'lashga roziligi yozilgan vekseldir
8. Qimmatli qog'ozlarning fundamental xususiyatlari
- a. aylanuvchanlik, likvidlilik, muxtorlilik
 - b. likvidlilik, xatar, muxtorlilik
 - c. xatar, muxtorlilik, kapitallashuv
 - d. aylanuvchanlik, likvidlilik, xatar
9. xalqaro amaliyotda Bill deb nimaga aytiladi
- a. vekselning bir turi
 - b. Qisqa muddatli g'azna majburiyatlari
 - c. uzoq muddatli g'azna majburiyatlari
 - d. o'rta muddatli g'azna majburiyatlari
10. O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar to'g'risida»gi qonuni qachon qabul qilingan?
- a. 18 dekabr 1998 yil
 - b. 20 yanvar 2000 yil

- c. 22 iyul 2008 yil
- d. 18 avgust 1998 yil

4-mavzu. Qimmatli qog'ozlar qiymatini belgilovchi omillar Topshiriqlar

1.T-sxemadan foydalanib, mavzu bo'yicha xulosalarni shakllantiring.

Qimmatli qog'ozlar qiymatiga uning chiqarilishi, joylashtirilishi, muomalasi, egasining almashishi bilan bog'liq xarajatlar (chiqimlar) ham jiddiy ta'sir qiladi.

Qimmatli qog'ozlarni baholash – bu davlat organlari, moliya institutlari (birjalar, banklar), korxonalar va tashkilotlar tomonidan emissiya qilingan ulushli qimmatli qog'ozlar (oddiy va imtiyozli aksiyalar), qarz qimmatli qog'ozlari (obligatsiyalar va veksellar), hosila qimmatli qog'ozlar (optionslar, fyucherslar) bozor qiymatini keng ko'lamda aniqlashdir. Qimmatli qog'ozlarda ifodalangan moliyaviy aktivlar va majburiyatlar qiymatini hisoblash va kompaniyalarning moliyaviy qo'yilmalarini batafsil tahlil qilish nafaqat ularning yoki biznesda ishtirokning o'zga shaklining bozor narxini belgilashga, balki ushbu qo'yilmalarning istiqboldagi daromadlilikini prognozlashga imkon beradi. Baholash xizmatlarning mazkur turi ko'pincha biznesni baholash bo'yicha paketlar majmuasiga kiritiladi.

Qimmatli qog'ozlar qiymatiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar sifatida quyidagilar qayd qilinadi:

- ☐ qimmatli qog'ozlar likvidligi;
- ☐ savdo maydonlarida o'xshash qimmatli qog'ozlarga talab va taklif nisbati;
- ☐ o'xshash qimmatli qog'ozlar kotirovkasi;
- ☐ daromadlilik yoki kelgusi daromadning joriy qiymati;
- ☐ emitent tavsifi (joylashgan joyi, qaysi sohaga mansubligi, moliyaviy ko'rsatkichlari);
- ☐ qimmatli qog'ozlar ishonchliligi, majburiyatlarni bajarmaslik riskiga nisbatan qimmatli qog'ozlar bahosi.

Umuman olganda, qimmatli qog'ozlar qiymatiga ta'sir qiluvchi omillarni tashqi va ichki, makroiqtisodiy va mikroiktisodiy, obyektiv va subyektiv, ehtimoliy (kutilgan), kam ehtimolli (yuz berishi mumkin)

va tasodifiy (noma'lum va kutilmagan) kabi turlarga ajratish mumkin.

Tashqi omillarga fond bozoriga bevosita bog'liq bo'lmagan omillar kiritiladi (inflyatsiya, raqobat, siyosiy va iqtisodiy inqirozlar);


Ichqi omillarga fond bozori rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq omillar kiritiladi (emitentning iqtisodiy farovonlik darajasi, talab va taklif nisbati).

Makroiqtisodiy omillarga o'tish iqtisodiyotining umumiy taraqqiyot tendentsiyalari taalluqli sanaladi (davlat siyosati va uning institutining aniq ta'sirlari).

Mikroiqtisodiy omillar sifatida mintaqaviy bozor va qimmatli qog'ozlar bozorining alohida tarmoq segmentining rivojlanish yo'nalishi e'tirof etiladi.

2. Quyidagi “Qimmatli qog'ozlar qiymatini belgilovchi omillar” chizmani to'ldiring va har birini izohini keltiring.

Qimmatli qog'ozlar qiymatini belgilovchi omillar



3. Quyidagi “Qimmatli qog'ozlar qiymatini belgilovchi omillar” dan makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillar xususiyatlarini yoritib bering

Makroiqtisodiy omillar	Mikroiqtisodiy omillar
- davlat siyosati ;	- qimmatli qog'ozlar bozorining alohida tarmoq segmentining rivojlanish;
-	-
-	-

4. Test savollariga javob bering

1. Qqga ta'sir qiluvchi omillarning qaysi biriga o'tish iqtisodiyotining umumiy taraqqiyot tendentsiyalari taalluqli sanaladi (davlat siyosati va uning institutining aniq ta'sirlari)
 - a. sub'ektiv va ob'ektiv omillar
 - b. ichki omillar
 - c. makroiqtisodiy omillar
 - d. ehtimoliy omillar
2. Fond indekslaridagi o'zgarishlar ta'siri, investitsiyaviy jozibadorligi kuchayishi yoki susayishi tufayli qimmatli qog'ozlar kursining o'zgarishi qaysi omillar qatoriga kiritiladi?
 - a. Tashqi omillar
 - b. Subyektiv omillar
 - c. Obyektiv omillar
 - d. Ichki omillar
3. Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholashning asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:
 - a. Barcha javob to'g'ri
 - b. ularning oldi-sotdisi bo'yicha bitimlar tuzish, meros qoldirish va in'om etish tartibotini amalga oshirish
 - c. aksionerlik jamiyatiga investitsiyalar jalb qilish
 - d. kreditlashda garov qiymatini aniqlash uchun qimmatli qog'ozlar bahosini aniqlash
4. Quyidagilarning qaysi biri qimmatli qog'ozlar qiymatiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar sifatida qayd qilinadi:
 - a. Barcha javob to'g'ri
 - b. savdo maydonlarida o'xshash qimmatli qog'ozlarga talab va taklif nisbati
 - c. o'xshash qimmatli qog'ozlar kotirovkasi
 - d. qimmatli qog'ozlar likvidligi
5. Qimmatli qog'ozlar qiymatiga ta'sir qiluvchi omillarni qanday guruhlarga ajratish mumkin?
 - a. tashqi va ichki, makroiqtisodiy va mikroiktisodiy, obyektiv va subyektiv, ehtimoliy (kutilgan), kam ehtimolli (yuz berishi mumkin) va tasodifiy (noma'lum va kutilmagan)
 - b. Makro va mikro, obyektiv va subyektiv

- c. Kutilgan va kutilmagan, ehtimoliy (kutilgan), kam ehtimolli (yuz berishi mumkin) va tasodifiy (noma'lum va kutilmagan)
- d. Ajratilmaydi
- 6. Qaysi omillarga fond bozoriga bevosita bog'liq bo'lmagan omillar kiritiladi
 - a. Tashqi omillarga
 - b. Ichki omillarga
 - c. Obyektiv va subyektiv omillarga
 - d. Ehtimoliy omillarga
- 7. Qaysi omillarga fond bozori rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq omillar kiritiladi
 - a. Ichki omillarga
 - b. Obyektiv va subyektiv omillarga
 - c. Ehtimoliy omillarga
 - d. Tashqi omillarga
- 8. Makroiqtisodiy omillarga nimalar kiritiladi?
 - a. O'tish iqtisodiyotining umumiy taraqqiyot tendentsiyalari
 - b. Mintaqaviy bozor va qimmatli qog'ozlar bozorining alohida tarmoq segmentining rivojlanish yo'nalishi
 - c. Fond indekslaridagi o'zgarishlar ta'siri
 - d. Investitsiyaviy jozibadorligi kuchayishi
- 10. Mikroiktisodiy omillar sifatida quydagilarning qaysi birini keltirib o'tish mumkin?
 - a. Mintaqaviy bozor va qimmatli qog'ozlar bozorining alohida tarmoq segmentining rivojlanish yo'nalishi
 - b. Investitsiyaviy jozibadorligi kuchayishi
 - c. O'tish iqtisodiyotining umumiy taraqqiyot tendentsiyalari
 - d. Fond indekslaridagi o'zgarishlar ta'siri
- 11. Fond indekslaridagi o'zgarishlar ta'siri, investitsiyaviy jozibadorligi kuchayishi yoki susayishi tufayli qimmatli qog'ozlar kursining o'zgarishi qaysi omillar qatoriga kiritiladi?
 - a. Obyektiv omillar
 - b. Subyektiv omillar
 - c. Tashqi omillar
 - d. Ichki omillar
- 12. Amaliyotda ko'pincha quyidagilardan qaysi qimmatli qog'ozlar va ulushlarning qiymati baholanadi?
 - a. Barcha javoblar to'g'ri
 - b. ochiq yoki yopiq turdagi aksionerlik jamiyatlari aksiyalari

c. mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda ishtirok ulushi

d. veksellar va obligatsiyalar

13.Mulk qiymati va narxi shakllanishi bozoriga ta'sir qiluvchi omillarga qaysilar kiradi?

a. Tashqi, ichki makro fundamental, ichki mezo va mikro, ichki nano va ichki maxsus omillar

b. Ichki makro fundamental, ichki mezo va mikro, ichki nano va ichki maxsus omillar

c. Ichki makro fundamental, ichki mezo va mikro omillar

d. Tashqi,ichki mezo va mikro, ichki nano va ichki maxsus omillar

14.Inson va oila jipsligi (birdamligi), totuvligi, madaniyati, qadr-qimmati, urf- odatlari, mentaliteti va haq-huquqlari qaysi omilga kiradi?

a. Ichki nano omillar

b. Tashqi omillar

c. Ichki makro fundamental

d. Ichki mezo va mikro omillar

15.Uy xo'jaliklarining rivojlanganligi uy xo'jaliklari kapitali, ko'chmas mulki, uy- joy bilan ta'minlanganligi darajasi qaysi omilga kiradi?

a. Ichki nano omillar

b. Tashqi omillar

c. Ichki makro fundamental

d. Ichki mezo va mikro omillar

16.Biznes riski, raqobatbardoshlik va moliyaviy xavfsizlik darajasi, reytingi

korporativ boshqaruv siyosati modeli va reytingi qaysi omilga kiradi?

a. Ichki mezo va mikro omillar

b. Ichki nano omillar

c. Tashqi omillar

d. Ichki makro fundamental

17.Iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlarining ekologik madaniyati, innovatsionlik darajasi qaysi omilga kiradi?

a. Ichki mezo va mikro omillar

b. Ichki nano omillar

c. Tashqi omillar

d. Ichki makro fundamental

18.Maxsus ichki bozor (jumladan MQNB) infratuzilmasi omillarning rivojlanganligi, uni ochiqqligi (transparentligi) xalkaro darajada integrallashganligi

baholash biznesi muhiti qaysi omilga kiradi?

- a. Maxsus ichki omillar
- b. Ichki mezo va mikro omillar
- c. Ichki nano omillar
- d. Tashqi omillar

19. Iqtisodiy globadlashuv tendentsiyalari va tizimli risk qaysi omilga kiradi?

- a. Tashqi omillar
- b. Maxsus ichki omillar
- c. Ichki mezo va mikro omillar
- d. Ichki nano omillar

20. Iqtisodiy tsikllar va ularga mos inqirozlar qaysi omilga kiradi?

- a. Tashqi omillar
- b. Maxsus ichki omillar
- c. Ichki mezo va mikro omillar
- d. Ichki nano omillar

5. Muhokama uchun savollar

1. Qimmatli qog'ozlar qiymatiga ta'sir qiluvchi omillar?
2. Qimmatli qog'ozlar qiymatiga ta'sir qiluvchi tashqi omillar?
3. Qimmatli qog'ozlar qiymatiga ta'sir qiluvchi ichki omillar?
4. Qimmatli qog'ozlar qiymatiga ta'sir qiluvchi makroiqtisodiy omillar?
5. Qimmatli qog'ozlar qiymatiga ta'sir qiluvchi mikroiqtisodiy omillar?
6. Qimmatli qog'ozlar qiymatiga ta'sir qiluvchi sub'ektiv omillar?
7. Qimmatli qog'ozlar qiymatiga ta'sir qiluvchi ob'ektiv omillar?
8. Qimmatli qog'ozlar qiymatiga ta'sir qiluvchi nano omillar?
9. Qimmatli qog'ozlar qiymatiga ta'sir qiluvchi ichki mezo va mikro omillar?
10. Qimmatli qog'ozlar qiymatiga ta'sir qiluvchi Maxsus ichki omillar?
11. Qimmatli qog'ozlar qiymatiga ta'sir qiluvchi ehtimoliy omillar?

5-mavzu. Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholashning metodologik asoslari

Topshiriqlar

1. Quyida qimmatli qog'ozlar qiymatini baholashning metodologik asoslariga tegishli ma'lumotlar keltirildi. Ularni o'rganing hamda shu mavzuga doir kamida 10ta tayanch iborani izohi bilan keltiring.

Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholashning yondoshuvlari

Daromadli yondoshuv - bu baholash obyektidan kutilayotgan daromadlarni aniqlashga asoslangan baholash obyektining qiymatini baholash uslublari majmuidir.

Qiyosiy yondoshuv - bu baholash obyektini unga nisbatan bitimlari qiymatlari to'g'risida ma'lumotlariga ega bo'lgan boshqa shunga o'xshash obyektlar bilan solishtirish orqali baholash obyektining qiymatini baholash uslublari majmuidir.

Xarajatli yondoshuv - bu mulkning eskirganligini inobatga olgan holda baholash obyektini tiklash yoki almashtirish uchun zarur bo'lgan sarf-xarajalar miqdorini belgilashga asoslangan baholash uslublari majmuidir.

Aksiya va aksiya paketlari baholanayotgan kompaniyaning ichki va tashqi axboroti to'liq hajmda ochiq bo'lsa, quyidagi uslublari qo'llaniladi.

Daromad yondashuvi. Daromadga oid yondashuv orqali olingan, aksiyachi kompaniyaning narxi hozirdagi narx ko'rsatkichlari orqali ifoda etilgan, mulkdorning kelajakda kutilayotgan daromadining mablaqi hisoblanadi. Analogik holda, mulkdor o'z biznesini oldindan aytilayotgan kelajakdagi daromadlarning hozirgi narxidan kamiga sotmaydi. Tomonlar o'zaro ta'sirlari orqali kelajakdagi daromadlarning hozirgi narxiga teng keladigan bozor narxiga kelishadi deb hisoblanadi.

Biznesning narxi daromadga oid yondashuv chegarasida shunday aniqlanishi mumkin:

- saromoyani kapitallashtirish usuli orqali;
- uzluksiz pul ishlab chiqishni diskont qilish usuli orqali.

Sarmoyani kapitallashtirish usuli – bu biznes narxini bir harakat orqali

aniqlash: yo berilgan biznesni olib borgandan olinayotgan baholangan daromadni kapitallashtirish koeffitsientiga bo'lish yo'li

bilan, yo ba'zi multiplikatorga ko'paytirish yo'li bilan. Berilgan uslubda pulni uzluksiz ishlab chiqarishning tozasi kapitallashtiriladi.


Natijada vaqtda chegaralanmagan uzluksiz daromad narxi kapitallashtirilgan bo'ladi. Berilgan uslub quyidagicha shaklga ega:

Bozor narxi = Toza sarmoya/kapitallashtirish uchun qo'shilgan qiymat.

Amaliyotda berilgan uslub quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Moliyaviy hisbotni tahlil qilish, uning transformatsiyasi va normallashtirilishi.
2. Kapitallashtirilishi kerak bo'lgan sarmoya kattaligini tanlash.
3. Kapitallashtirish uchun qo'yilgan qiymatning moslashgan qismini topish.
4. Narx kattaligining dastlabkisini aniqlash.
5. Funktsiya bajarmayotgan faollarni tuzatish.
6. Baholanayotgan qismning nazoratga oid yoki oid bo'lmagan xarakteriga

2. Qiyosiy solishtirish metodining usullarini ko'rsating va har birini izohini keltiring



2. T-sxemadan foydalanib, mavzu bo'yicha xulosalarni shakllantiring.

Kapitallashtirish koeffitsienti biznesning daromadlari koeffitsient hisobiga utkazilayotgan maosh sifatida taqdim etiladi. Kapitallashtirish koeffitsienti diskontlash maoshi asosiga tayanishi mumkin. Shu tarzda, pul oqimining o'sishi bo'lmaganda kapitallashtirish koeffitsienti diskontlash maoshiga teng bo'ladi. Shunday qilib, kapitallashtirishning maoshini aniqlash uchun diskontning maoshini aniqlash zarur. Uni hisoblash uchun turli xil metodikalar qo'llaniladi:

- kapital faollarni baholash modeli;
- kumulyativ tuzilish usuli;
- kapital narxining o'rta o'lchangan usuli.

Amaliyotda eng ko'p tarqalgan usul kumulyativ tuzish usuli. O'sishning bir xildagi doimiy sur'ati bilan xarakterlanadigan, barqaror ekonomik vaziyat sharoitlarida daromadni kapitallashtirish usuli eng ko'p qo'llaniladi.

Daromadlarning baqarorligiga va/yoki ular doimiy bir xildagi o'sishiga taxmin qilishning iloji bo'lmagan paytda, diskontlangan pul oqimi usulm qo'llaniladi.

Diskontlangan pul oqimi usuli kelgusidagi daromadlarni olish va ularni hozirdagi narx ko'rsatkichlariga o'tkazishni oldindan aytishga asoslangan. Uning farqli tomoni va asosiy afzalligi shu-ki, u biror – bir matematik usul bilan izohlab bo'lmayligan daromad oqimining nosistematik o'zgarishlarini e'tiborga olishga imkon beradi. Berlgan vaziyat itisodiyoti sharoitida diskontlangan pul oqimini ishlatishga jalb qiladi, bu esa baholanayotgan biznes narxiga jiddiy ta'sir qiladigan, tayyor maxsulot, xom – ashyo, materiallar va boshqa komponentlar narxining o'zgaruvchanligi bilan xarakterlanadi.

Pul oqimini diskontlash usuli quyidagi sabablarga ko'ra boshqa barcha baholanayotgan usullaridan afzal:

Respublika xususiy lashida qo'llanilayotgan yondashuv va usullar tegishli milliy standartga asoslanadi.

Daromad yondashuvi. Korxona qiymatini baholash (aksiya, ulush, pay) Pul oqimlarini diskontlash usuli:

$$PV = \frac{CF_1}{1+DR} + \frac{CF_2}{(1+DR)^2} + \dots + \frac{CF_n}{(1+DR)^n} + \frac{FV}{(1+DR)^n}$$

bu erda, PV – joriy qiymat; CF – davr davomidagi pul oqimi; FV - reversiya, korxonaning bashorat davridan keyingi qoldiq qiymat; DR – distkontlash stavkasi; n – bashorat davrining so'ngi yili.

3. “Stol atrofida” muhokama uchun savollar

1. Mulknı qiymatini baholashning qanday yondashuvlari mavjud?
2. Korxonalar QQlari qiymatini baholashda yondashuvlarnı taqqoslama tavsifini tushuntirib bering?
3. Korxona QQ (aksiya, ulush, pay)ni qiymati daromadli yondashuvning pul oqimlarini diskontlash usuli orqali qaysi formula yordamida baholanadi?
4. QQni qiymati qiyosiy yondashuvda baholaganda qanday usullaridan foydalaniladi qaysi tenglama orqali baholanadi?
5. QQ baholanganda xarajatli yondashuvning qanday usullaridan foydalaniladi va ular qanday holatlarda qo'llaniladi?

4. Quyidagi jadvalni to'ldiring

Yondashuvlar	Usullar guruxi
	1) kapitalizatsiya usuli; 2) pul okimlarini diskonlash usuli
Qiyosiy solishtirish	
	1) sof aktivlar usuli; 2) tugatish kiymati usuli

4. Test savollari

1. Jamiyatning tanlagan ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish modeli, unda millat mentaliteti, urf-odati, psixologiyasi va uning hududiy xususiyatlari qaysi omilga kiradi?
 - a. Ichki makro fundamental
 - b. Tashqi omillar
 - c. Maxsus ichki omillar
 - d. Ichki nano omillar
2. Mamlakat va uning hududlarida inson omilining rivojlanishi darajasi, innovatsion salohiyati qaysi omilga kiradi?

- a. Ichki makro fundamental
 - b. Maxsus ichki omillar
 - c. Ichki nano omillar
 - d. Tashqi omillar
3. Mamlakatdagi mavjud makroiqtisodiy sharoit, biznes va investitsiya muhiti, milliy va hududiy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi qaysi omilga kiradi?
- a. Ichki makro fundamental
 - b. Maxsus ichki omillar
 - c. Ichki nano omillar
 - d. Tashqi omillar
4. Kim depozit va jamg'arma sertifikatlarini chikarish xukukiga ega?
- a. Banklar
 - b. Davlat
 - c. Xokimiyatlar
 - d. Turli mulk shakldagi korxonalar
5. Qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi emitentiga qarab obligatsiyalar qanday turlarga ajratiladi?
- a.** Korporativ va munitsipial obligatsiyalar
 - b.** Korporativ, davlat va munitsipial obligatsiyalar
 - c. Korporativ va davlat obligatsiyalar
 - d.** Davlat va munitsipial obligatsiyalar
6. Korporativ obligatsiyalarning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumot qay tartibda e'lon qilinadi?
- a. Davlat tomonidan gazetada
 - b. Korxona tomonidan gazetada
 - c. Korxona tomonidan faqat internetta
 - d. Davlat tomonidan internetta
7. Obligatsiyalar so'ndirilishi qachon amalga oshiriladi?
- a. Xoxlagan vaqtda
 - b. Obligatsiyalarning muomala muddati tugash sanasidan bir oy o'tib
 - c. Obligatsiyalarning muomala muddati tugash sanasidan olti oy o'tib
 - d. Obligatsiyalarning muomala muddati tugash sanasidan bir kun o'tib
8. Xarajatli yondashuv kamchiliklari tog'gg'ri kog'rsatilgan javobni toping
- a. O'xshash korxonalardan qog'shimcha ahborotni qabul qilish qiyin jarayon hisoblanadi
 - b. Nomoddiy aktivlar va gudvill narxini hisobga olmaydi

- c. Statistik, kelgusidagi daromadlarni hisobga olmaydi hamda daromad bosqichlari kog'rib chiqilmaydi
 - d. Barcha javoblar tog'ri
9. Daromadga asoslangan yondashuv usullari tog'ri kog'rsatilgan javobni aniqlang
- a. Asosiy faoliyat bog'yicha pul oqimi usuli
 - b. Bitimlar usuli, Kapital bozori usuli, Tarmoq koeffitsienti usuli
 - c. Sof aktivlar usuli, Likvidatsiya qilinadigan narx usuli
 - d. Daromadlarni kapitalizatsiya qilish usuli, Pul oqimini diskontlash usuli
10. Daromadli yondashuv bu
- a. Baholash ob'yektidan kutilayotgan daromadlar
 - b. Baholash ob'yektiga sarflangan barcha xarajatlar
 - c. Baholash ob'yekti xarajatlari va daromadlarini solishtirish
 - d. Moddiy va nomoddiy aktivlarni baholash
11. Qiyosiy yondashuv bu
- a. Baholash ob'yektini unga o'xshash bo'lgan ob'yektlar bilan solishtirish
 - b. Baholash ob'yektidan kutilayotgan daromadlar
 - c. Baholash ob'yekti xarajatlari va daromadlari majmui
 - d. Statistik, kelgusidagi daromadlarni hisobga olish

5. Quyidagi jadvalni to'ldiring

Yondashuvlar	Usullar guruxi
	1)
	2) pul okimlarini diskonlash usuli
	1) kapitallar bozori usuli;
	2) 3) tarmokdar koeffitsientlari usuli
	1) sof aktivlar usuli;
	2)

6-mavzu. Qarz munosabatlarini mujassamlashtiruvchi qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash

Topshiriqlar

1. Diskussiya qatnashchisiga eslatma bilan tanishish va Qarz munosabatlarini mujassamlashtiruvchi qimmatli qog'ozlar bo'yicha diskussiya uchun ma'lumot tayyorlang.

Diskussiya qatnashchisiga eslatma

1. Diskussiya muammo echilish metodi hisoblanadi, lekin munosabatlarni aniqlash emas.
2. Boshqalarga imkoniyat berish uchun ko'p gapirma.
3. So'zlarni o'ylab, toroziga solib gapir, emotsiyani nazorat qilib, fikrlarni to'liq bayon qilishga imkon ber.
4. Muholifat (opponent) pozitsiyasini tushunishga harakat qil, unga hurmat bilan yondosh.
5. Aniq ifodalab, muholifat tomonidan aytilgan fikrga yomon munosabatda bo'lma.
6. Faqat diskussiya predmeti bo'yicha gapir, o'zingning umumiy aqlingni, o'qimishligingni ko'rsatgin.
7. Birovga yoqishga yoki o'zingning chiqishiga bilan o'zingni ma'qullab o'zgalarga halaqit qilma.

Diskussiya qatnashuvchilarini baholash mezonlari

Baholash mezonlari	Dokladchi			
	1	2	3	4
1. Doklad tarkibi (1,0)				
- muhimligi;				
- ketma-ketligi, dokladning aniqligi va logikasi;				
- aniq xulosalar formulirovkasi;				
2. Ishlayotgan axborot yangiligi (0,5)				
3. Taqdim etilayotgan axborotning foydalanishi (0,4)				
Reglamentga rioya qilinishi (0,1)				
JAMI:				
	Retsenzentlar			
	1	2	3	4
1. Dokladga qo'shimchalar (0,5)				
2. Dokladni kuchli va zaif tomonlarini ko'rsatish				
JAMI:				
	Diskussiya qatnashchilari			
	1	2	3	4

1. Savollar: - hajmi (0,1 har biriga); - mohiyati bo'yicha (0,3); 2. Qo'shimcha (0,5)				
JAMI:				

2. Quyida keltirilayotgan nazorat va muhokama uchun savollarga javob toping.

1. Muddatsiz obligatsiyalarning qiymati qanday aniqlanadi?
2. Qaytarilishi cheklangan muddatli kupon obligatsiyalarning haqiqiy qiymatini baholash tenglamasi ayting?
3. Ochiq qimmatli qog'ozlar bozorida muomalada bo'lmagan obligatsiyalarni baholash uchun qanday hujjatlar taqdim etiladi?
4. Korporativ obligatsiyalar qanday shartlar asosida chiqariladi?
5. Hisoblangan foiz daromadi qaysi formula orqali aniqlanadi?
6. Qarz munosabatlarini mujassamlashtiruvchi qimmatli qog'ozlarga misol keltiring

3. Quyidagi test savollariga javob toping.

1. Quyidagi keltirilgan qimmatli qog'ozlarning qaysi biri qarz munosabatlarini ifodalovchi qimmatli qog'ozlarga kiradi?

- a. Obligatsiya
- b. Aktsiya
- c. Omonat sertifikatlar
- d. Veksallar

2. Qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi emitentiga qarab obligatsiyalar qanday turlarga ajratiladi?

- a. Korporativ, davlat va munitsipial obligatsiyalar
- b. Korporativ va munitsipial obligatsiyalar
- c. Korporativ va davlat obligatsiyalar
- d. Davlat va munitsipial obligatsiyalar

3. Obligatsiyalarning muomala muddati obligatsiyalarni joylashtirish boshlangan sanadan boshlab necha kundan iborat?

- a. 1825
- b. 1925
- c. 1625

d. 1725

4. Obligatsiyalar so'ndirilishi qachon amalga oshiriladi?

- a. Obligatsiyalarning muomala muddati tugash sanasidan bir kun o'tib
- b. Obligatsiyalarning muomala muddati tugash sanasidan bir oy o'tib
- c. Obligatsiyalarning muomala muddati tugash sanasidan olti oy o'tib
- d. Xoxlagan vaqtda

5. Obligatsiyalar so'ndirilishi qachon amalga oshiriladi?

- a. Naqdsiz hisob-kitoblar orqali O'zR pul birligi so'mda
- b. Naqd pulsiz hisob-kitoblar orqali chet el valyutasida
- c. Naqd pul orqali O'zR pul birligi so'mda
- d. Naqd pul orqali chet el valyutasida

6. Obligatsiya bo'yicha foiz stavkasi oraliq davrning birinchi kunida qanday hisoblanadi?

- a. Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasiga teng bo'ladi
- b. Hisoblanmaydi
- c. Belgilangan foizda
- d. Davr oxiriga hisoblanadi

7. Uzoq muddatli obligatsiyalar qiymati qanday aniqlanadi?

- a. Muddatsiz obligatsiyalar uchun qoidalar bo'yicha
- b. Aniqlanmaydi
- c. Diskontlash orqali
- d. Yillik foiz to'lovlari orqali

8. Uzoq muddatli obligatsiyalar muddati qancha?

- a. 3 yildan 5 yilgacha
- b. 1 yildan 3 yilgacha
- c. 1 yilgacha
- d. Bunday obligatsiyalar yo'q

9. Qisqa muddatli obligatsiyalar muddati qancha?

- a. 1 yilgacha
- b. 1 yildan 3 yilgacha
- c. 3 yildan 5 yilgacha
- d. Bunday obligatsiyalar yo'q

10. O'rta muddatli obligatsiyalar muddati qancha?

- a. 1 yildan 3 yilgacha
- b. 3 yildan 5 yilgacha
- c. 1 yilgacha
- d. Bunday obligatsiyalar yo'q

11. Ochiq qimmatli qog'ozlar bozorida muomalada bo'lgan qimmatli qog'ozlarni baholash uchun qanday hujjat zarur?

- a. Obligatsiyaga qonuniy tarzda egalik qilinayotganligini tasdiqlovchi hujjat
- b. Emitentning jami aktivlari
- c. Obligatsiyaning chiqarilishi parametrlari
- d. Emitent korxonaning ta'sis hujjatlari

12. Kuponsiz obligatsiyalarning haqiqiy qiymati qanday hisoblanadi

- a. Oddiy obligatsiyalar uchun qo'llaniladigan formulalar orqali
- b. Muddatsiz obligatsiyalar uchun qo'llaniladigan formulalar orqali
- c. Uzoq muddatli obligatsiyalar uchun qo'llaniladigan formulalar orqali
- d. Hisoblanmaydi

13. Ochiq qimmatli qog'ozlar bozorida muomalada bo'lmagan qimmatli qog'ozlarni baholash uchun qanday hujjat zarur?

- a. Barcha javob to'g'ri
- b. Emitentning jami aktivlari
- c. Obligatsiyaning chiqarilishi parametrlari
- d. Obligatsiyaga qonuniy tarzda egalik qilinayotganligini tasdiqlovchi hujjat

14. Korporativ obligatsiyalar davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin necha kun davomida chiqarilishi mumkin?

- a. 365 kun davomida
- b. 360 kun davomida
- c. 6 oy davomida
- d. 3 yil davomida

15. Obligatsiyalarni joylashtirish muddati ichida jami joylashtirilgan obligatsiyalarning miqdori obligatsiyalar umumiy sonining necha foizidan kam bo'lganda obligatsiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb tan olinadi?

- a. 60
- b. 50
- c. 70
- d. 80

16. Obligatsiyalarning joylashtirish narxi birinchi, ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi oraliq davrlarining birinchi kunida qanday qiymat bo'yicha hisoblanadi?

- a. Nominal qiymat
- b. Real qiymat
- c. Balans qiymati
- d. Bozor qiymati

17. Korporativ obligatsiyalar egalarining reestrini shakllantirish kim tomonidan amalga oshiriladi?

- a. Markaziy depozitariy
- b. Markaziy bank
- c. Emitent tomonidan
- d. Obligatsiya egasi tomonidan

18. Korporativ obligatsiyalarning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumot qay tartibda e'lon qilinadi?

- a. Korxona tomonidan gazetada
- b. Davlat tomonidan gazetada
- c. Korxona tomonidan faqat internetta
- d. Davlat tomonidan internetta

19. Oraliq davrining to'lov miqdori obligatsiyalarga o'rnatilgan foiz stavkasi va oraliq davrining davomiyligidan kelib chiqib obligatsiyaning qaysi qiymatiga nisbatan hisoblangan foizlar ko'rinishida belgilanadi?

- a. Nominal qiymat
- b. Real qiymat
- c. Balans qiymati
- d. Bozor qiymati

20. Obligatsiyalar muddatidan oldin so'ndirilganda ular bo'yicha foizlar obligatsiya egasidan ariza olingan paytdan e'tiboran necha kun mobaynida to'lab berilishi kerak?

- a. Besh kun
- b. O'n kun
- c. Yigirma kun
- d. Bir oy

4. Quyidagi masalalarni eching

Masala №

100 000 sum qiymatli 4 yil muomila muddatiga ega bulgan kuponsiz obligatsiya koplov muddatiga 2 yil kolganda 125 000 sumga sotib olindi. Obligatsiyani sotib olgan investor uchun ikki yil muddatga pullarini bankka kuyish foydalirok bulishi uchun, bankning yarim yillik minimal stavka birligi kanday bulishi lozim? Bank murakkab foizlarni xar yarim yilda kushadi.

Masala №2

B kompaniyasi A kompaniyadan Skompaniya tomonidan berilgan vekselni sotib oldi.

Oxirgisi veksel buyicha 2000 yilning 1 iyunigacha 5 mln sum tulashni va'da qilgan. B kompaniyasi A kompaniyaga vekselni sotib olayotganida 700000 sum tulagan. A va B kompaniyalari kimmatbaxo kogozlar bilan operatsiyalarini bajargani uchun kushilgan xolda kanday mikdordagi solikni tulashgan.

Masala №3

Tijorat bankining uzining veksellerini joylashtirish narxi aniklansin, shu shart bilanki veksel 100000 sumga yozilgan, koplov muddati 240 kun va bankning foiz stavkasi 40%.

Masala №4

AJ obligatsiyalari 1993 yilning 1 yanvarida chikarilgan. Obligatsiyalarning muomilada bulish muddati 2 yil. Yillik kupon 8,5%. Kiymat narxi 1000 sum, lekin birinchi joylashtirishdagi obligatsiyaning narxi 974 sumni tashkil etdi. Birinchi joylashtirilishida obligatsiyani sotib olgan(solikka tortilish xisobga olinmasin) investor uchun, pullarini bankga 2 yil muddatga kuyish foydalirok bulishi uchun bankning minimal stavka mikdori kanday bulishi kerak.

Masala №5

"A" AJti kandaydir birlamchi X narx buyicha boshka AJning obligatsiyasini sotib oldi. Obligatsiyaning kiymati 10000 sum. Koplov muddati 10 yildan sung. 10% daromad xar yili kupon buyicha tulanadi. 7 yildan sung ushbu obligatsiya "A" AJ ning balansida 9670 sum narxdagi kurinishiga ega. Birlamchi X narxi aniklansin.

7-mavzu. Ulush munosabatlarini mujassamlashtiruvchi qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash

Topshiriqlar

1. Quyida keltirilgan nazorat va muhokama uchun savollarga javob toping.

1. Aksiyalarni baholashning maqsadlari nimalardan iborat va aksiyalarni baholash uchun qanday hujjatlar zarur?
2. Aksiyalarning baholash qiymatiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni sanang?
3. Aksiylar paketini baholashda daromad, qiyosiy va xarajat yondashuvlarining qaysi usullari qo'llaniladi.
4. Gordon sxemasi modeli formulasini keltiring?
5. Oddiy va imtiyozli aksiyalarni baholashni qisqa so'zlab bering?
6. Aksiylar jozibadorligining miqdoriy chegaralarini grafikda tushuntiring?


2. T-sxemadan foydalanib, mavzu bo'yicha xulosalarni shakllantiring.

Bozor tomonidan aksiyalar qiymatini baholashda ko'plab omillar hisobga olinadi. Ularning orasida emitent kompaniyalarning moliyaviy ahvoli, uning foydaliligiva kutilayotgan dividendlarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Butun dunyoda aksiyalar qiymatini baholash uchun ikki parametr keng qo'llaniladi: dividend daromadlilik va aksiyalar narxining aksiyalar foydasiga nisbati. Bundan tashqari, korporativ qimmatli qog'oz sifatida aksiyalarning o'ziga xosligi shundaki, aksiyadorlarning huquqlari hajmi unga tegishli aksiyalar miqdoriga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun aksiyalarni baholashda paket miqdori (nazorat darajasi) o'ta muhim parametr hisoblanadi, chunki miqdori bo'yicha turlicha paketlarda aksiyalar qiymati ham turlicha bo'ladi.

Aksiyalarning baholash qiymatiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar:

- ☐ talab va taklif nisbati;
- ☐ aksiyalar likvidligi;
- ☐ o'xshash aksiyalar kotirovkasi;
- ☐ daromadlilik yoki kelgusi daromadning joriy qiymati;
- ☐ aksiyalar ishonchliligi.

3. Aksiyalarni baholash qanday maqsadlarda o'tkaziladi Quyidagi chizmani to'ldiring



4. Quyidagi Korxonalar QQlari qiymatini baholashda yondashuvlarni taqqoslama tavsifi jadvalini to'ldiring.

Yondashuv	Afzalliklari	Kamchiliklari
Bozor (qiyosiy, taqqoslash)		
Daromad		Mehnat hajmining oldindan aytilishi. qisman ehtimolligi bor xarakteriga ega. Ko'pincha nomoddiy aktivlar (NMA) va gudvill narxini hisobga olmaydi.
Xarajat (balans)	Real mavjud bo'lgan faollarga asoslanadi.	

5. Test savollari

1. Ulush munosabatlarini ifodalovchi qimmatli qog'oz

- a. Aktsiya
- b. Aktsiya, veksel
- c. Obligatsiya, fyuchers
- d. Optsion, deposit sertifikati

2. “Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi” Qonun qachon qabul qilingan?

- a. 1996 yil 26 aprel
- b. 1998 yil 11 may
- c. 1995 yil 6 aprel
- d. 1995 yil 8 may

3. “Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi” Qonunning yangi tahriri qachon qabul qilingan?

- a. 2014 yil 6 may
- b. 2015 yil 3 iyun
- c. 2014 yil 3 iyul

d. 2015 yil 26 dekabr

4. “Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi” Qonunning yangi tahriri necha moddadan iborat?

- a. 116 modda
- b. 125 modda
- c. 118 modda
- d. 112 modda

5. Aktsiyalarning baholash qiymatiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar

- a. Talab va taklif nisbati, aksiyalar likvidligi
- b. Aktsiyalar qiymati, aktsiyaning ishonchliligi
- c. Aktsiya paketining yakuniy qiymati
- d. Aktsiyadorlarning daromadi

6. Aktsiyalar paketini baholashning daromad yondashuvida qanday usullar qo'llaniladi?

- a. Foydani kapitallashtirish usuli, pul oqimlarini diskontlash usuli
- b. Kapital bozor usuli, bitimlar usuli, tarmoqlar koefftsienti usuli.
- c. Sof aktivlar usuli, tugatish qiymati usuli
- d. Tarmoqlar koefftsienti usuli, pul oqimlarini diskontlash usuli

7. Aktsiyalar paketini baholashning xarajatli yondashuvida qanday usullar qo'llaniladi?

- a. Sof aktivlar usuli, tugatish qiymati usuli
- b. Foydani kapitallashtirish usuli, pul oqimlarini diskontlash usuli
- c. Foydani kapitallashtirish usuli, tugatish qiymati usuli
- d. Kapital bozor usuli, bitimlar usuli, pul oqimlarini diskontlash usuli

8. Aktsiyalar paketini baholashning qiyosiy yondashuvida qanday usullar qo'llaniladi?

- a. Kapital bozor usuli, bitimlar usuli, tarmoqlar koefftsienti usuli.
- b. Sof aktivlar usuli, tugatish qiymati usuli
- c. Tarmoqlar koefftsienti usuli, pul oqimlarini diskontlash usuli
- d. Foydani kapitallashtirish usuli, pul oqimlarini diskontlash usuli

9. Aksiya dividenti doimiy o'sish bo'lganda qiymati Gordon modeli asosida toppish formulasi qanday?

- a. $P = [D_0 * (1+g) / (r-g)]$
- b. $P = [D_0 + (1+g) / (r-g)]$
- c. $P = [D_0 * (1+g) * (r-g)]$
- d. $D = [D_0 * (1+g) / (r-g)]$

10. Dividend daromadi bo'yicha baholash formulasi qanday?

- a. $S = D/A * r * 100\%$
- b. $S = D/A * r$
- c. $S = D * A * r$
- d. $S = D * A * r * 100\%$

11. Bozor usuli bu-...

- a. QQBda hukmron bo'lgan aksiyalar kursi
- b. Aktsiyalarning nominal kursi
- c. Aktsionerlik kapitalini o'lchash usuli
- d. Fond bozorida o'zining tavsiflariga mos ravishda sotilishi lozim bo'lgan qiymat

12. Balans usuli bu-...

- a. Kompaniyaning aktsiyadorlik kapitalini o'lchash usuli
- b. Kompaniyaning majburiyatlar so'ndirilgandan keyin qolgan kompaniya aktivlari summasi
- c. QQBda hukmron bo'lgan aksiyalar kursi
- d. Aktivlarining balans qiymati bo'yicha aksiyalarni baholash bo'yicha taxminiy qiymati

13. Tugatish usuli bu-...

- a. Majburiyatlar so'ndirilgandan va imtiyozli aksiyalarning egalariga to'lovlar amalga oshirilgandan so'ng aktivlarni mumkin bo'lganlar ichida eng foydali narxda sotishdan keyin qolgan kompaniya aktivlari summasi
- b. Investor nuqtai nazaridan qimmatli qog'oz fond bozorida o'zining tavsiflariga mos ravishda sotilishi lozim bo'lgan qiymat
- c. QQBda hukmron bo'lgan aksiyalar kursi
- d. Kompaniyaning aktsiyadorlik kapitalini o'lchash usuli

14. Investitsiyaviy usul bu-...

- a. Investor nuqtai nazaridan qimmatli qog'oz fond bozorida o'zining tavsiflariga mos ravishda sotilishi lozim bo'lgan qiymat
- b. Majburiyatlar so'ndirilgandan va imtiyozli aksiyalarning egalariga to'lovlar amalga oshirilgandan so'ng aktivlarni mumkin bo'lganlar ichida eng foydali narxda sotishdan keyin qolgan kompaniya aktivlari summasi
- c. Fond bozorida o'zining tavsiflariga mos ravishda sotilishi lozim bo'lgan qiymat
- d. Aktivlarining balans qiymati bo'yicha aksiyalarni baholash bo'yicha taxminiy qiymati

15. Dividend olish maqsadida aktsiyalarni xarid qiluvchi investor qaysi toifadagi aktsiyani xarid qiladi?

- a. A-toifadagi
- b. B-toifadagi
- c. D-toifadagi
- d. C-toifadagi

6. Masala

Masala №1

Shu'ba aksionerlik jamiyatining balansi kuyidagi kursatkichlarga ega;

		ming sum	
Aktiv	Summa	Passiv	Summa
Asosiy vositalar	250	Nizom mablagi	180
Ishlab chikarish zaxiralari	30	Foyda	100
Gazna	5	Muassislar bilan xisob kitoblar	20
Xisob rakami	15		
Balans	300	Balans	300

Muassislardan biriga("AVS" jamiyatiga) shu'ba korxonaning 60% aktsiyalari tegishli. "AVS" jamiyatining shu'ba korxonani tashkil kilishda kushgan mablag mikdorini aniklang.

Masala №2

AJning balansi kuyidagi kursatkichlarga ega;

		ming sum	
Aktiv	Summa	Passiv	Summa
Asosiy vositalar	50	Nizom mablagi	100
Nomaterial aktivlar	10	Foyda	50
Ishlab chikarish zaxiralari	22		
Gazna	2		
Xisob rakami	36		
Muassislar bilan xisob kitoblar	30		
Balans	150	Balans	150

AJning nizom mablagini tulov foizi aniklansin.

Masala №3

2000 yilning avgust oyida 10 oy mavjud bulgan AJning tugatilishi bulib utdi. Tugatilish tugrisida karor kabul kilingan vaktida uning buxgalterlik balansi kuyidagi kursatkichlar bilan xarakterlangan,

ming sum:

Aktiv	Summa	Passiv	Summa
Nomaterial aktivlar	1000	Nizom mablagi	2000
Asosiy vositalar	2000	Zaxira jamgarmasi	1000
Tugallanmagan i/ch	2000	Maxsus muljallangan jamgarmalar	1000
Muassislar bilan xisob kitoblar	1000	Xisbot yilning taksimlanmagan daromadi	1000
Ishlab chikarish zaxiralari	1000	Uzok muddatli kreditlar	2000
Xisob rakami	1000	Mexnat tulovlari buyicha xisob kitoblar	1000
Byudjet bilan xisob kitob	1000	Kiska muddatli kreditlar	2000
Boshka aylanma aktivlar	1000		
Balans	10000	Balans	10000

AJ 2000 dona 1000 sum qiymatga ega aksiyalar ishlab chikarilgan, shulardan yarmining 25%, turtan bir kismining yarmi, turtan bir kismi tulik tulangan sharti bilan, jamiyatning bitta oddiy aksiyasiga tugri keladigan tulov miqdorini aniklang.

Masala №4

Yanvar oyida AJ(investitsion jamgarma bulmagan) nizom mablagini 1 mlrd. gacha kutarishini ma'lum kiladi. Aktsiyaga obuna bulish shartida uning birinchi tulovi 30% miqdorida tulanishi kolgani esa yarim yil davomida tulanishi nazarda tutilgan bulgan. Iyulda obunaning natijalarini chikarilganida aniklandiki, aktsiya obunasi 700 mln. sumni tashkil kilgan, fakt buyicha 650 mln.sum tushim bulgan. Obuna natijalari chikarilgandan sung AJning "Nizom mablagi" xisobida kaday summa kursatiladi.

Masala №5

AJ ishlab chikarish tanlovi asosida tulash kobiliyatiga ega emas sifatida tugatilayapti. Tugatilishi davrida tuzilgan buxgalterlik balansi kuyidagicha xarakterlanadi, ming sum;

Aktiv	Summa	Passiv	Summa
Asosiy vositalar	2000	Nizom mablagi	1000
		Uzok muddatli kredit (obligatsiyali kredit)	1000
		Kreditorlar bilan xizmat va tovarlar uchun xisob kitoblar	1000
		Mexnat xakini tulash buyicha xisob kitoblar	1000
Zarar	3000	Byudjet bilan xisob kitoblar	1000
Balans	5000	Balans	5000

"Bankrotlik xakidagi" RF Konuniga muvofik, bir dona obligatsiyaga tugri keladigan tulov miqdorini, jamiyat tomonidan 1000 dona aktsiya chikarilib joylashtirilgan sharti bilan aniklang.

8-mavzu. Hosilaviy va boshqa turdagi qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash

Topshiriqlar

1. Quyidagi jadvalni to'ldiring

Tushuncha	Izoh
Derivativlar	
	bu muayyan maqsadda (garov, tovarning ombordaligini tasdiqlovchi guvohnoma, tashish uchun yuklarni qabul qilib olinganligi bo'yicha dalolatnoma va boshqalar) chiqariladigan qimmatli qog'ozlardir.
Vaucher	
	veksel beruvchining yoki vekselda ko'rsatilgan boshqa to'lovchining vekselda nazarda tutilgan muddat kelganda veksel egasiga muayyan summani to'lashga doir shartsiz majburiyatini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog'oz
Opsion	
	dengiz yuki tashuvchisi yoki uning vakolatli vakili tomonidan beriladigan qimmatli qog'ozlardir
korporativ obligatsiyalar	
	– bu investor fiksirlangan bazis narx bo'yicha aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa fond, moddiy qimmatliklar (valuta, depozitlar, banklararo kreditlar, tovarlar va b.) ning muayyan miqdorini kelishilgan muddat tugashi bo'yicha sotish yoki xarid qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladigan shartnomadir.

2. Nazorat va muhokama uchun savollarga javob bering.

1. Hosila va maqsadli qimmatli qog'ozlarni baholash qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi?
2. Oddiy va ikkilangan ombor guvohnomalarini qiymatini aniqlash jarayonini hikoya qilib bering?
3. Opsionlarning bozor qiymati aniqlashni tushuntirib bering?
4. Opsion shartnomasidagi vaqt qiymati qanday mukofot deb qaraladi?
5. Fyuchers shartnomalarini baholash deganda nimanı tushunasiz?
6. Hosilaviy va boshqa turdagi qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash deganda nima tushunasiz?.

3. Quyidagi ma'lumotni o'rganing va fikringizni bayon eting.


T-sxemadan foydalanib, mavzu bo'yicha xulosalarni shakllantiring.

Fyuchers shartnomasi (fyuchers) – bu investor fiksirlangan bazis narx bo'yicha aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa fond, moddiy qimmatliklar (valuta, depozitlar, banklararo kreditlar, tovarlar va b.) ning muayyan miqdorini kelishilgan muddat tugashi bo'yicha sotish yoki xarid qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladigan shartnomadir. Fyuchers opsiondan ijro majburiyligi bilan ajralib turadi. Tovar, valuta, foiz, indeks va boshqa fyuchers shartnomalari mavjudligi qayd qilinadi. Aksionerlik jamiyatining qimmatli qog'ozlari uchun fyuchers shartnomalarining bozor qiymati asosan emitentning moliyaviy holati, qimmatli qog'ozlarni etkazib berishgacha muddatgacha kelishilgan qimmatli qog'ozlarni etkazib berishning bazis narxi darajasi bilan bog'liq.


Fyuchers shartnomalar qat'iy standartlashtirilgan va qimmatli qog'ozlar sotuvchilari hamda xaridorlarining aniq talablarini aks ettiradi. Muayyan turdagi qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisini amalga oshirish uchun standart muddatli shartnomalar (fyucherslar) asosan quyidagilarni o'zida jo etadi: qimmatli qog'oz turi; fiksirlangan sotish narxi; qimmatli qog'ozlar miqdori; bitim summasi, shartnomani bajarish sanasi; hisob-kitob shartlari.

Fyuchersli shartnoma - ikki tomon o'rtasidagi aktivlarni almashtirish yoki kelajakda baho va vaqt yuzasidan ko'rsatiladigan xizmatlar haqida tomonlar kelishilgan holda imzo chekadigan shartnoma. An'anaviy fyuchers shartnomasi bilan savdo qilingan ko'p hollarda bir taraf ikkinchi tarafning tovarni qo'yish yoki xizmatni kelajakda belgilangan vaqtda almashtirish taklifiga rozi bo'ladi, ikkinchi taraf tomonlar orasidagi shartnomaga binoan qo'yilgan tovar uchun haq to'lashga kelishiladi. Birinchi taraf fyuchers kontraktining sotuvchisi, ikkinchi taraf uning haridori.

Tez buzuladigan tovarga fyucherslar



Buzulmaydigan tovarlar bilan ta'minlashga fyucherslar, pul shakllanishi va arbitraj



Vaqt	Faoliyat	CF	Faoliyat	CF
Hozir	1. Fyuchers shartnomani sotish	0	1. Fyuchers shartnomani sotib olish	0
	2. Risksiz stavka bo'yicha spot bahosini qarzga olish	S	2. Tovarni qisqa sotish	S
	3. Spot bahosi bo'yicha tovarni sotib olish	- S	3. Risksiz stavka bo'yicha ssuda	- S
t vaqtda	1. Tovarni olish, saqlash xarajatlarini to'lash	- S kt	1. Berilgan ssudani to'lash	
	2. Fyuchers shartnomasi bo'yicha ta'minlash	F	2. Fyuchers shartnomasi bo'yicha ta'minotni qabul qilib olish	- F
	3. Qarzni to'lash	- S $(1+r)^t$	3. Qarzga berilgan tovarni va saqlash xarajatlarini qabul qilib olish	S kt
NCF	$F - S[(1+r)^t - kt] > 0$		$S[(1+r)^t + kt] - F < 0$	

5. Quyidagi Fyuchers va forward shartnomalarini qiyoslash bo'yicha ma'lumotni o'rganing va xulosani shakllantiring

Vaqt davri	Oltinning bahosi (doll.)	Oluvchining CF: forward shartnoma (doll.)	Sotuvchining CF: forward shartnoma (doll.)	Oluvchining CF: fyuchers shartnoma (doll.)	Sotuvchining CF: fyuchers shartnoma (doll.)
1	420	0	0	5	-5
2	430	0	0	10	-10
3	425	10	-10	-5	5
Sof natija		10	-10	10	-10

6. Test savollari

1. Bazisli qimmatli qog'ozlar - bu...

- options, warrant, fyuchers, svop
- kontango, bekvordeyshn
- aktsiya, svop, spot
- To'g'ri javob yo'q

2. derivativlar bu- ...

- options, warrant, fyuchers, svop
- kontango, bekvordeyshn
- aktsiya, svop, spot
- To'g'ri javob yo'q

3. Fyuchers shartnomasi

a. fiksirlangan bazis narx bo'yicha qimmatliklarning muayyan miqdorini kelishilgan muddat tugashi bo'yicha sotish yoki xarid qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladigan shartnomadir

b. muayyan muddat davomida oldindan belgilangan narxda qimmatli qog'ozlarning muayyan miqdorini xarid qilish yoki sotish huquqini beruvchi shartnoma

c. qimmatli qog'ozlarni zudlik bilan bozor narxda qimmatli qog'ozlarning muayyan miqdorini xarid qilish yoki sotish huquqini beruvchi shartnoma

- to'g'ri javob yo'q

4. Hosilaviy qimmatli qog'ozlar bu ,,.....,,

a. bu ularning egasiga aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa fond qimmatliklarini xarid qilish yoki sotish huquqini beruvchi ixtiyoriy qimmatli qog'ozlardir

b. bu investor fiksirlangan bazis narx bo'yicha aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa fond, moddiy qimmatliklar (valuta, depozitlar, banklararo kreditlar, tovarlar va b.) ning muayyan miqdorini kelishilgan muddat tugashi bo'yicha sotish yoki xarid qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladigan shartnomadir

c. xususiylashtirish jarayonida foydalaniladigan o'ziga xos qimmatli qog'oz sanaladi

d. muayyan muddat davomida oldindan belgilangan narxda qimmatli qog'ozlarning muayyan miqdorini xarid qilish yoki sotish huquqini beruvchi shartnomadir

5.bu investor fiksirlangan bazis narx bo'yicha aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa fond, moddiy qimmatliklar (valuta, depozitlar, banklararo kreditlar, tovarlar va b.) ning muayyan miqdorini kelishilgan muddat tugashi bo'yicha sotish yoki xarid qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladigan shartnomadir

a. Fyuchers shartnomasi

b. Opsion

c. Aksiya

d. Veksel

6. Maqsadli qimmatli qog'oz bu

a. bu muayyan maqsadda (garov, tovarning ombordaligini tasdiqlovchi guvohnoma, tashish uchun yuklarni qabul qilib olinganligi bo'yicha dalolatnoma va boshqalar) chiqariladigan qimmatli qog'ozlardir

b. muayyan muddat davomida oldindan belgilangan narxda qimmatli qog'ozlarning muayyan miqdorini xarid qilish yoki sotish huquqini beruvchi shartnomadir

c. xususiylashtirish jarayonida foydalaniladigan o'ziga xos qimmatli qog'oz sanaladi

d. to'g'ri javob yo'q

7. Fyuchers va opsiyonning bir-biridan farqi shundaki

a. derivativ bajarilganda bazisdagi aktivlarni etkazib berish majburiyati

b. hosilaviy qimmatli qog'ozlar hisoblanadi

- c. opsiya asosida fyuchers bo'lishi mumkin
- d. moliyaviy aktivlarni kelajakda sotib olish imkonini beradi

8. Hosilaviy qimmatli qog'ozlar?

- a. opsiya, fyuchers, varant
- b. aktsiya, obligatsiya, veksel
- c. aktsiya, fyuchers, varant
- d. depozit sertifikatlar, obligatsiya, veksel

9.– dengiz yuki tashuvchisi yoki uning vakolatli vakili tomonidan beriladigan qimmatli qog'ozlardir (yuk egasi yoki uning vakiliga)

- a. kontango
- b. konosament
- c. bekvordeyshn
- d. To'g'ri javob yo'q

10. Qimmatli qog'ozlarning diversifikatsiyasi deganda

- a. ishonchli, daromadlik kelishuv vositasini investorlar tomonidan jamg'arilgan mablag'larni bir xillashtirish
- b. bitta kompaniya tomonidan chiqarilgan bir turdagi qimmatli qog'ozning ikkinchi turdagi qimmatli qog'ozga almashinishi tushuniladi
- c. investorlar tomonidan qimmatli qog'ozlar portfelini bir xillashtirish va toraytirish tushuniladi
- d. investorlar tomonidan qimmatli qog'ozlar portfelidagi xilma-xillikni o'zgartirishi va kengaytirishi tushuniladi

**9-mavzu. Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash
to'g'risidagi xulosa (hisobot)**

Topshiriqlar

1. Nazorat va muhokama uchun savollarga javob toping.

1. Baholash haqida hisobotlar ekspertizasi tamoyillari sanab chiqing?
2. Baholovchi baholash sanasidan so'ng ma'lum bo'lgan axborotlardan foydalana olish huquqiga egami?
3. Baholash hisobotini ekspert xulosasiga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?
4. Ekspert-baholovchining xulosasining natijaviy qismi nimalardan tarkib topishi mumkin?
5. Biznesni baholash haqida hisobotlar ekspertizasida aniqlangan baholovchilar tomonidan yo'l qo'yilgan asosiy xatolarni aytib bering?

2. Quyidagi ma'lumotni o'qing va fikringizni bildiring. T-sxemadan foydalanib, mavzu bo'yicha xulosalarni shakllantiring.

Uslubiy tavsiyalar baholash haqida hisobotlar ekspertizasi o'tkazish tamoyillarini, shuningdek, ekspert xulosasi mazmuni va rasmiylashtirilishiga talablarni belgilab beradi.

Uslubiy tavsiyalar baholovchilarning o'zini-o'zi boshqaruvchi tashkilotlarining (keyingi o'rinlarda... BO'BT) ekspert kengashi a'zolari, shuningdek, baholash haqida hisobotlar ekspertizasini amalga oshiruvchi boshqa jismoniy va yuridik shaxslar, ekspertiza buyurtmachilari, baholovchilar va ekspertiza natijalaridan foydalanuvchilar foydalanishi uchun mo'ljallangan.

Baholash haqida hisobotlar ekspertizasi tamoyillari

1. Baholash haqida hisobotda aniqlangan kamchiliklar mavjudligi asoslanganlik, yetarlilik, ishonchlilik va mavjudlik talablariga mos ravishda isbotlangan bo'lishi lozim.

2. Baholash haqida hisobot ekspertizasini olib borishda baholovchi tomonidan qo'llash mumkin bo'lmagan (jumladan tekinga), shuningdek, baholash sanasidan so'ng ma'lum bo'lgan axborotlardan foydalanilishiga yo'l qo'yilmaydi.

3. Ekspert xulosasi tarkibida jiddiy nuqsonlar (xatolar) ga ishora qiluvchi baholash haqida hisobot qaydlari mavjud bo'lishi lozim.

4. Baholash haqida hisobotning to'g'rilangan nusxasiga ekspert xulosasida baholash haqida hisobotning oldingi versiyasida bo'lgan, lekin ekspert xulosasida ko'rsatilmagan xatolarni ko'rsatib o'tish tavsiya qilinmaydi, baholash haqida hisobotni tuzatish oqibatida ma'lum bo'lgan xatolar bundan istisno sanaladi.

5. Baholash haqida hisobot ekspertizasi takror baholash o'tkazishni taqozo qilmaydi.

6. Agar ekspert-baholovchida boshqacha deb hisoblash uchun asos bo'lmasa, baholash haqida hisobot ekspertizasi baholash haqida hisobotda baholash obyektlari tavsiflari ishonchli deb olish asosida o'tkaziladi. Agar lavozim majburiyatlari ijrosi yuzasidan ekspertizani amalga oshirayotgan ekspert-nazarda tutilmagan bo'lsa, baholash haqida hisobot ekspertizasida baholash

obyektlarini ko'zdan kechirish talab qilinmaydi.

7. Baholovchilar tomonidan baholash o'tkazish shartnomasi talablariga rioya qilinayotganligini tekshirish baholash haqida

hisobotning respublika baholash faoliyati to'g'risidagi qonunchiligiga zid bo'lmagan baholash o'tkazish shartnomasi bo'yicha belgilangan shartlarga mutanosibligini aniqlash yo'li bilan amalga oshiriladi.

8. Baholash haqida hisobot ekspertizasi baholash faoliyati to'g'risidagi qonunchilikning barcha talablarini tekshirishni o'z ichiga olishi lozim va faqat ayrim talablarni, masalan, faqat umumiy talablarni tekshirishdan iborat bo'lishi mumkin emas.

3. Diskussiya qatnashchisiga eslatma bilan tanishning va qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash to'g'risidagi xulosa (hisobot) bo'yicha diskussiya uchun ma'lumot tayyorlang.

Diskussiya qatnashchisiga eslatma

1. Diskussiya muammo echilish metodi hisoblanadi, lekin munosabatlarni aniqlash emas.
2. Boshqalarga imkoniyat berish uchun ko'p gapirma.
3. So'zlarni o'ylab, toroziga solib gapir, emotsiyani nazorat qilib, fikrlarni to'liq bayon qilishga imkon ber.
4. Muholifat (opponent) pozitsiyasini tushunishga harakat qil, unga hurmat bilan yondosh.
5. Aniq ifodalab, muholifat tomonidan aytilgan fikrga yomon munosabatda bo'lma.
6. Faqat diskussiya predmeti bo'yicha gapir, o'zingning umumiy aqlingni, o'qimishligingni ko'rsatgin.
7. Birovga yoqishga yoki o'zingning chiqishing bilan o'zingni ma'qullab o'zgalarga halaqit qilma.

Diskussiya qatnashuvchilarini baholash mezonlari

Baholash mezonlari	Dokladchi			
	1	2	3	4
1. Doklad tarkibi (1,0)				
- muhimligi;				
- ketma-ketligi, dokladning aniqligi va logikasi;				
- aniq xulosalar formulirovkasi;				
2. Ishlayotgan axborot yangiligi (0,5)				
3. Taqdim etilayotgan axborotning foydalanishi (0,4)				
Reglamentga rioya qilinishi (0,1)				
JAMI:				
	Retsenzentlar			
	1	2	3	4

1. Dokladga qo'shimchalar (0,5)				
2. Dokladni kuchli va zaif tomonlarini ko'rsatish				
JAMI:				
	Diskussiya qatnashchilari			
	1	2	3	4
1. Savollar: - hajmi (0,1 har biriga); - mohiyati bo'yicha (0,3); 2. Qo'shimcha (0,5)				
JAMI:				

4. Quyidagi tushunchalar izohini keltiring.

Tushushncha	Izoh
Baholash haqida hisobot	
	Baholovchilar baholayotgan o'bekt (ko'chmas mulk, biznes va mulkchilikning boshqa shakllari)
Mulkni baholash	
	baxolanish xakidagi fikr kuchga ega bulgan kun (muddat).
Pul okimi	
	bulgusi pul tushumlarini joriy kiymatga aylantirish uchun foydalaniladigan iktisodiy samara stavkasi.
Kapitallashtirish stavkasi	muayyan davr uchun daromad mikdorini kiymatga aylantirish uchun foydalaniladin, koida tarrikasida, foiz xisobida ifodalanadigan buluvchi.
Joriy kiymat	.

5. Test savollari

1. Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash to'g'risidagi hisobot kim tomonidan tuziladi

a. Baholovchi tashkilot va baholovchi tomonidan

- b. menejerlar tomonidan
- c. rieltorlar tomonidan
- d. tadbirkorlar tomonidan

2. Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash to'g'risidagi hisobot qanday shaklda tuziladi

- a. yozma
- b. og'zaki
- c. og'zaki hamda yozma
- d. to'g'ri javob yo'q

3. Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash to'g'risidagi hisobot haqidagi ekspert xulosasiga kiritiladigan qaydlarga qo'yiladigan talablar

- a. barcha javoblar to'g'ri
- b. har xil talqinga yo'l qo'ymaslik
- c. qaydlar yanglish holatlarga olib kelmasligi
- d. haddan ziyot ortiq axborotlar bo'lmasligi

4. Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash faoliyatining natijasi

- a. Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash to'g'risidagi hisobot
- b. dalolatnoma
- c. buxgalteriya balansi
- d. barcha javoblar to'g'ri

5. Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash to'g'risidagi hisobot qaysi qonun talablariga muvofiq ravishda rasmiylashtiriladi

- a. Baholash faoliyati to'g'risidagi qonunga asosan
- b. Mulk to'g'risidagi qonunga asosan
- c. Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonunga asosan
- d. Rieltorlik faoliyati to'g'risidagi qonunga asosan

6. Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash to'g'risidagi hisobotning namunaviy mundarijasi o'z ichiga nimalarni qamrab oladi

- a. barcha javoblar to'g'ri
- b. bozor vaziyati tahlili
- c. baholash obyekti
- d. qiymat haqida yakuniy xulosa

7. Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash natijalari qaysi hujjatda aks etadi

- a. Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash to'g'risidagi hisobotda
- b. Korxonaning moliyaviy hujjalarida
- c. Korxonaning buxgalteriya balansida

d. Dalolatnomada

8. Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash to'g'risidagi hisobotda nimalar aks etishi lozim

- a. barcha javoblar to'g'ri
- b. baholash to'g'risidagi hisobot tuzilgan sana
- c. baholash obyektni baholashdan o'tkazish uchun asos
- d. baholash obyektni baholashning maqsadi

9. Agar baholash obyektni baholash bir nechta baholovchi tomonidan o'tkazilgan bo'lsa, baholash to'g'risidagi hisobotni tayyorlash jarayonida ular tomonidan bajarilgan ish baholash to'g'risidagi hisobotda ko'rsatilishi majburiymi

- a. Majburiy
- b. Shartli ravishda
- c. Korsatilishi majburiy emas
- d. to'g'ri javob yo'q

10. Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash to'g'risidagi hisobotda bahoni aniqlash mezonlari ko'rsatilishi shartmi

- a. Shart
- b. Korsatilishi majburiy emas
- c. Mijoz tomonidan talab qilinganda
- d. barcha javoblar to'g'ri

10-mavzu. Qimmatli qog'ozlar qiymatini uning narxi bilan bog'liqlikda baholash kontseptsiyasi

Topshiriqlar

1. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Baholash hisobotini tarkibi nimalardan tashkil topadi?
2. Baholash faoliyatini huquqiy-me'yoriy tartiblashtirish qanday amalgam oshiriladi?
3. Baholovchilar ishi sifatini nazorat qilishning ichki qoidalari nimalardan iborat?
4. Baholash haqida hisobotning namunaviy mundarijasi nimalardan iborat bo'ladi?
5. Baholash ob'ektlari deganda nima tushunasiz?
6. Baholovchi tashkilot qanday qo'shimcha professional xizmatlar ko'rsatishi mumkin?
7. Milliy standartning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat?
8. Baholovchi tashkilotlarning ichki qoidalari o'z vazifalariga ko'ra qanday guruhlariga bo'linishi mumkin?

Narx iqtisodiy mazmuniga kura, bozorda turlarining ko'pligi bilan ajralib turadi.

Narxning shakllanishida iste'molchilarning ta'siri sezilarli bo'lib, bunda nafakat iqtisodiy, balki psixologik omillar xam e'tiborga olinishi lozim. Bu erda asosan iste'molchilarning narxini kabul qilish psixologiyasi yoki narxga munosabati xisobga olinadi. Narxlarni belgilashda iste'molchilar talabi, rakobat, xarajatlar kabi omillar narx strategiyasi tarkibida taxlil qilinadi.

Ta'kidlash zarurki, yukorida sanab utilgan narx va qiymat turlari bozor iqtisodiyoti amaliyotidagi ularning mavjud umumiy sonidan ancha kam bo'lib, ularni zarur bulsa tegishli adabiyotlardan kurish mumkin.

Iqtisodiyotda amal kilib turgan barcha qiymat va narx turlari ularning xar biriga moe keluvchi tizimlar — qiymat tizimi va narx tizimi - tarkibiga kiradi. Bu tizimlar turli yunalishlar buyicha amal kiladi. Bunda qiymat va narx xar doim turlari buyicha uzgarib turuvchi va ixtisoslashuvi aniklashib boruvchi kategoriyalardir.

Agarda qiymat va narxning uzaro bog'likligini xisobga olsak, narx qiymatning bozor munosabatlarida kon'yunkturaviy belgilanadigan pul birligidagi ifodasi deb kabul kilinishi mumkin. Bunda ta'kidlash zarurki, iktisodiyot fanlari doirasida mulk qiymati va narxi tushunchalari uzbek va rus (jumladan barcha xorij) tillarida chop etilgan adabiyotlarda ma'lum darajada farklansada, lekin xorijda ularning kullanilishi uxshash. Masalan, uzbek tilidagi adabiyotlarda, narx va baxo sinonim terminlar deb talkin kilinadi. Zero, rus tilidagi iktisodiy adabiyotlarda esa chet ellardagidek (AKD1, Evropa mamlakatlari, Yaponiya va x.k. mamlakatlar)⁷ qiymat (ruscha "stoimost", inglizcha "cost", "value", "appraisal", "assess") va uning moliyaviy (puldagi, valyutadagi) baxosi (ya'ni xisoblanib topilgan baxo - ruscha "otsenka", inglizcha "estimation", "valuation", "mark") xamda narx (ruscha "tsena", inglizcha "price") turli tushuncha deb ta'kidlanadi. Rus tilidagi "sebestoimost" degan suz esa uzbek tiliga, negadir, "tannarx" deb tarjima kilingan. Fikrimizcha, aynan bunday tarjima Uzbekistonda qiymat, narx va baxo tushunchalariga ma'lum darajada chalkashlik kiritmokda. Shu munosabat bilan va jaxon baxolash amaliyotida

qiymat narx emas deb kabul kilinganligini xisobga olib, fikrimizcha, "tannarx" suzini rus tilidagi "sebestoimost" va ingliz tilidagi "cost", "appraisal", "assess", "value" suzlariga moe ravishda "maxsulot yoki mulkni sotib olish, yaratish, ishlab chikarish xarajatlarini jamlab xisoblab topilgan qiymati" (kiskacha - "sarf qiymat" yoki jami sarf-xarajatlar sarxisobidan iborat qiymat mazmuniga monand "sar qiymat") deb yuritilsa maksadga muvofik.

3. Test savollari

1. Baholash obyektni baholashdan o'tkazishda bozor qiymatidan farqlanuvchi qiymat aniqlangan bo'lsa, baholash obyektining bozor qiymatini aniqlash imkoniyatidan voz kechish sabablari ko'rsatilishi majburiymi

- a. Majburiy
- b. Shartli ravishda
- c. Korsatilishi majburiy emas
- d. Mijoz tomonidan talab qilinganda

2. Baholash haqida hisobotlar ekspertizasi tamoyillari

- a. barcha javoblar to'g'ri
- b. Ekspert xulosasi tarkibida jiddiy nuqsonlar (xatolar) ga ishora qiluvchi

baholash haqida hisobot qaydlari mavjud bo'lishi lozim.

- c. Baholash haqida hisobot ekspertizasi takror baholash o'tkazishni taqozo qilmaydi.

- d. Baholash haqida hisobotda aniqlangan kamchiliklar mavjudligi asoslanganlik, yetarlilik, ishonchlilik va mavjudlik talablariga mos ravishda isbotlangan bo'lishi lozim.

3. Baholash hisobotini ekspert xulosasiga qo'yiladigan talablar

- a. barcha javoblar to'g'ri
- b. Qaydlar umumqabul qilingan baholash amaliyotiga muvofiqlikda kamchiliklarni bartaraf etishga zamin yaratishi lozim
- c. Qaydlarda baholash haqida hisobotning xatolik mavjud sahifasi va parchasiga havolalar keltirilishi lozim.
- d. Qaydlarga xatoliklarni tuzatishning aniq uslubiy usullari haqida talablar kiritilmasligi lozim, lekin xatoliklarni tuzatishning ehtimoliy usullari haqida axborot keltirilishi

4. ... -bu ularning egasiga aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa fond qimmatliklarini xarid qilish yoki sotish huquqini beruvchi ixtiyoriy qimmatli qog'ozlardir

- a. Xosilaviy qimmatli qog'ozlar
- b. Xazina majburiyatlari
- c. Depozit sertifikatlari
- d. Veksel

5. Xosilaviy qimmatli qog'ozlarni baholash bosqichlari

- a. barcha javoblar to'g'ri

b. baholash maqsadi, qiymat turi, uslubiy yondashuv va baholash usullarini aniqlash

c. emitentning fond bozoridagi holatini va fond operatsiyalari natijalarini aniqlash

d. qimmatli qog'ozlarning bozor qiymatini hisoblash

6. Opcion bu ,,,,,,,

a. muayyan muddat davomida oldindan belgilangan narxda qimmatli qog'ozlarning muayyan miqdorini xarid qilish yoki sotish huquqini beruvchi shartnomadir

b. bu investor fiksirlangan bazis narx bo'yicha aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa fond, moddiy qimmatliklar (valuta, depozitlar, banklararo kreditlar, tovarlar va b.) ning muayyan miqdorini kelishilgan muddat tugashi bo'yicha sotish yoki xarid qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladigan shartnomadir

c. xususiylashtirish jarayonida foydalaniladigan o'ziga xos qimmatli qog'oz sanaladi

d. to'g'ri javob yo'q

7. Xosilaviy qimmatli qog'ozlar bu ,,,,,,,,,

a. bu ularning egasiga aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa fond qimmatliklarini xarid qilish yoki sotish huquqini beruvchi ixtiyoriy qimmatli qog'ozlardir

b. bu investor fiksirlangan bazis narx bo'yicha aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa fond, moddiy qimmatliklar (valuta, depozitlar, banklararo kreditlar, tovarlar va b.) ning muayyan miqdorini kelishilgan muddat tugashi bo'yicha sotish yoki xarid qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladigan shartnomadir

c. xususiylashtirish jarayonida foydalaniladigan o'ziga xos qimmatli qog'oz sanaladi

d. muayyan muddat davomida oldindan belgilangan narxda qimmatli qog'ozlarning muayyan miqdorini xarid qilish yoki sotish huquqini beruvchi shartnomadir

8. ... - bu investor fiksirlangan bazis narx bo'yicha aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa fond, moddiy qimmatliklar (valuta, depozitlar, banklararo kreditlar, tovarlar va b.) ning muayyan miqdorini kelishilgan muddat tugashi bo'yicha sotish yoki xarid qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladigan shartnomadir

a. Fyuchers shartnomasi

b. Opcion

c. Aksiya

d. Veksel

9. Maqsadli qimmatli qog'oz bu

a. bu muayyan maqsadda (garov, tovarning ombordaligini tasdiqlovchi guvohnoma, tashish uchun yuklarni qabul qilib olinganligi bo'yicha dalolatnoma va boshqalar) chiqariladigan qimmatli qog'ozlardir

b. muayyan muddat davomida oldindan belgilangan narxda qimmatli qog'ozlarning muayyan miqdorini xarid qilish yoki sotish huquqini beruvchi shartnomadir

c. xususiylashtirish jarayonida foydalaniladigan o'ziga xos qimmatli qog'oz sanaladi

d. bu investor fiksirlangan bazis narx bo'yicha aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa fond, moddiy qimmatliklar (valuta, depozitlar, banklararo kreditlar, tovarlar va b.) ning muayyan miqdorini kelishilgan muddat tugashi bo'yicha sotish yoki xarid qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladigan shartnomadir

10.nazariy yondashuvlarning qaysi birida qiymat va narx- tovar (mulk)ning foydaliligini baxolovchi vosita deb aytilgan

a. neoklassik yondashuv

b. mumtoz (klassik) yondashuv

c. zamonaviy neoklassik yondashuv

d. qiymatni baxolash yondashuvi

11.nazariy yondashuvlarning qaysi birida narx ishlab chiqarish xarajatlarining pulda ifodalangan chegaraviy foydaliligi hamda talabva taklif isbati deb aytilgan

a. zamonaviy neoklassik yondashuv

b. qiymatni baxolash yondashuvi

c. neoklassik yondashuv

d. mumtoz (klassik) yondashuv

12.mumtoz (klassik) yondashuvga asosan qiymat va narxga qanday ta'rif berilgan

a. qiymat va narx- tovar (mulk)ning pulda ifodalangan baxosi deb aytilgan

b. qiymat va narx- tovar (mulk)ning foydaliligini baxolovchi vosita deb aytilgan

c. narx ishlab chiqarish xarajatlarining pulda ifodalangan chegaraviy foydaliligi hamda talabva taklif isbati deb aytilgan

d. to'g'ri javob yo'q

13.Mulkning real qiymati – bu ...

a. bu mulkning balans ko'rsatkichlari asosida baholangan qiymati.

- b. mulkni soliqqa tortish maqsadida baholangan qiymati.
- c. bu mulkning sotishdagi qiymati.
- d. oldi –sotti qiymati

14.Qiyosiy yondashuv usullari to`gri ko`rsatilgan javobni aniqlang

- a. Bitimlar usuli, Kapital bozori usuli, Tarmoq koeffitsienti usuli
- b. Sof aktivlar usuli, Likvidatsiya qilinadigan narx usuli
- c. Daromadlarni kapitalizatsiya qilish usuli, Pul oqimini diskontlash usuli
- d. Moliyaviy faoliyat bo`yicha pul oqimi usuli

15.Narhlar diskriminatsiyasi-bu ...

- a. bir tovar turli haridorga turli narhlarda sotilishi hollari
- b. o`zaro bog`langan narhlar nisbati
- c. bir tovarning ikki narhi oralig`idagi davrni puldagi ifodasi
- d. sotish va sotib olish narxlari oralig`i

4. Quyidagi tushunchalar va ularning izohini bayon eting.

Tushuncha	Izoh
	Qimmatli qog`ozlar qiymati, odatda, ularning narxidan farqlanadi, chunki qiymat professional baholovchi, xaridor, sotuvchi, potentsial investor, vositachi yoki emitentning muayyan fikrini fodalaydi, narx esa tuzilgan bitim shartlarini o`zida aks ettiradi. Qimmatli qog`ozlar qiymati hisoblanadi, narxi esa to`lanadi.
Baxo	
	ob`ekt qiymati, qimmatligi, nafligi va narxiga baxo berish jarayoni bulib, uni ekspert miqdoriy, sifatiy va organoleptik baxo berish usullarida bajarishi mumkin.
Baxolash faoliyati	
	odatda sodir etilgan oldi-sotdi xarakatini bildiradi va bozor sharoitini ifodalovchi muayyan xolatlarida konkret taraflarning bozor kon`yunkturasi asosida uzaro kelishib tuzgan bitim (shartnomasi,

	kontrakta) qiymatini tulashga tayyor bulgan pul summasini bildiradi.
Harajatlar	
	biror bir maxsulot, xizmat, tovar, maxsulot yoki mulkni ishlab chiqaruvchi tomonidan yaratish uchun ketgan to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) va bilvosita xarajatlar summasi miqdori
Bozor qiymati	
	mulkning balans kursatkichlari asosida baxolangan qiymati

5. Quyidagi tayanch iboralarni bir-biridan farqli jihatlarini bilib oling.

Mulkka *egalik qilish* mulkdorlik huquqining uning egasi qo'lida saqlanib turishini bildiradi va yaratilgan moddiy boyliklarni o'zlashti-rishning ijtimoiy shaklini ifodalaydi. Ayrim hollarda mulkka egalik qilish uning egasi ixtiyorida saqlangan holda, undan amalda foydalanish esa boshqalar qo'lida bo'ladi. Bunga ijaraga berilgan mol-mulkni misol qilib keltirish mumkin.

Mulkdan foydalanish – bu mol-mulkning iqtisodiy faoliyatda ishlatilishi yoki ijtimoiy hayotda qo'llanilishidir. Mol-mulkdan foydalanish yuz berganda u daromad olish uchun yoki shaxsiy ehtiyojni qondirish uchun ishlatilishini bildiradi.

Mulkni tasarruf etish – bu mol-mulk taqdirining mustaqil hal qilinishidir. U mol-mulkni sotish, meros qoldirish, hadya qilish, ijaraga berish kabi hollar orqali ro'y beradi.

Narx – bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar va xizmatlarning ijtimoiy qiymati va ijtimoiy nafliligining puldagi ifodasidir.

Narx muammosi va uning tashkil topishi mexanizmi iqtisodiy nazariyada eng murakkab va asosiy hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotida narx tizimi asosiy tashqiliy kuch sifatida namoyon bo'ladi. Tovarlar narxi tadbirkor uchun asosiy bir dastak hisoblanadi. U narxga qarab o'zining shaxsiy ehtiyojni qondirish yo'lida harakat qiladi.

AMALIY MASHG'ULOTNI BAJARISHDA TALABALAR UCHUN TAVSIYA ETILAYOTGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бердникова Т.В. Оценка ценных бумаг: Учебное пособие. -М.: ИНФРА-М, 2006.-144 с.
2. Shoha'zamiy Sh.Sh. Sekyurimetrika.- T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. Davlat milliy nashriyoti, 2005.-473 s.
3. Томас Т. Негл, Рид К. Стратегия и тактика ценообразования/Пер. С англ. –СПб.: Питер, 2001. - 169 с.
4. Николаева И.П. Рынок ценных бумаг: Учебник. – Дашков и К, 2015 г., -256 стр.
5. Рынок ценных бумаг: учебник под ред. Е.Ф.Жукова. Юнити- Дана, 2012 г., - 463 стр.
6. Косорукова И.В., Секачев С.А., Шуклина М.А. Оценка стоимости ценных бумаг и бизнеса. – М.: МФПУ «Синергия», 2016 г. – 904 с.
7. Xodiev B.Yu., Alimov R., Berkinov B.B., Kravcheno A. Biznesni baholash.-T.: 2007.
8. Shoha'zamiy Sh.Sh. Mulk, qiymati va narxning nazariy asoslari. - T.: Iqtisod-moliya, 2015.-460 b.
9. Николаева И.П. Рынок ценных бумаг, М.: Дашков и К, 2015 г. – 256 с.
10. Шевченко А.Н., Мосейчук В.В., Рынок ценных бумаг. – М.: ВГЛА, 2012 г., - 120 с.
11. Ширшова Е.В., Петрик Н.И. Финансовый рынок. – М.: Директ-Медиа, 2015 г. – 114 с.
- 12.Шохаъзамий Ш.Ш. Основы приватизации, рынок её объектов и услуг. Учебник.-Т.: Ибн Сино, 2004.-928 с.
- 13.Микерин Г.И., Гребенников В.Г., Нейман Е.И. Методологические основы оценки стоимости имущества.-М.: ИНТЕРПРЕКЛАМА, 2003.-688 с.
- 14.Shoha'zamiy Sh.Sh. Tizimli moliya injiniringi.-T.: Fan va texnologiya, 2012.-796 b.
- 15.Shoha'zamiy Sh.Sh. Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar.-T.: Fan va texnologiya, 2012.-440 b.
- 16.Shoha'zamiy Sh.Sh. Mulk nazariyasi, qiymati va narxi.-T.: Fan va texnologiya, 2012.-268 b.
- 17.Николаева И.П. Рынок ценных бумаг: учебник. Юнити- Дана, 2012 г., - 223стр.
- 18.Кузнецов Б.Т. Рынок ценных бумаг: Учебное пособие. Юнити- Дана, 2012 г., - 288 стр.
- 19.Xalqaro standartlar
- 20.Milliy standartlar

Internet-saytlar:

www.lex.uz

- O'zbekiston Respublikasi Qonun hujatlari ma'lumotlari

	milliy bazasi sayti
www.mineconomy.uz	- O`zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi sayti
www.mf.uz	- O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti
www.cbu.uz	- O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti
www.soliq.uz	- O`zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo`mitasi sayti
www.stat.uz	- O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi sayti
www.gov.uz	- O`zbekiston Respublikasi Hukumat portali
www.uza.uz	- O`zbekiston Milliy axborot agentligi sayti
www.gki.uz	- O`zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo`mitasi sayti

MUNDARIJA

Kirish	3
I. Talabalarni amaliy mashg'ulotda ishlashga qiziqtirish omillari qiziqtirish omillari	4
II. "Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash" fanning maqsad va vazifalari	5
III. Amaliy mashg'ulotni o'tishda qo'llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar va ularning mazmun-mohiyati	6
IV. "Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash" fanining har bir mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulot topshiriqlari.....	8
V. Amaliy mashg'ulotni bajarishda talabalar uchun tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati.....	60

